

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK:336 _____

ZIYAEVA FERUZA BAXTIYOROVNA
TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISH VA UNI
HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Mutaxassislik: 5A230702- «Bank hisobi va audit»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: dots. Jalilov M.

TOSHKENT-2015

Dissertatsiya Toshkent Moliya Instituti «Bank hisobi va audit» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

M. Jalilov

Kafedra mudiri v.v.b,

T.Boltayev

Magistratura bo'limi boshlig'i

U.Ortiqov

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING ZARURLIGI, MOHIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI.....	9
1.1 O'zbekistonda soliqqa tortish tizimining ahamiyati va asosiy tamoyillari.....	9
1.2 Tijorat banklarini soliqqa tortishning mohiyati va huquqiy asoslari.....	20
1.3 Banklar tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lovlar turlari.....	30
I bob bo'yicha xulosa.....	40
II BOB O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING HISOB VA SOLIQQA TORTISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	42
2.1 Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan umumdavlat soliqlar va ularning hisobi.....	42
2.2 Banklar tomonidan to'lanadigan mahalliy soliqlar va ularning hisobi.....	66
2.3 Respublikamiz tijorat banklari tomonidan to'lanadigan majburiy to'lovlar, ularning hisobi.....	76
II bob bo'yicha xulosa.....	86
III BOB TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR, UNI HAL QILISH YO'LLARI VA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	88
3.1 Tijorat banklarini soliqqa tortish tizimidagi muammolar va uni hal qilish yo'llari.....	88
3.2 Tijorat banklarini soliq to'lash tizimi va soliq hisobini takomillashtirish masalalari.....	97
III bob bo'yicha xulosa.....	110
XULOSA.....	111
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	114

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror va samarali faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimini yaratish masalasi mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridanoq hukumat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilab olindi. Natijada, bank sohasida ham katta ijobiy yutuqlarga erishilmoqda. Hukumatimiz va Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasida esa, hozirgi kunga kelib, jahon andozalariga mos ikki pog'onali mustaqil bank tizimi to'liq shakllandi.

2015 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 26 tani tashkil etib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 10 tasi aksiyadorlik tijorat banki, 8 tasi xususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtrokidagi banklar hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizda xorijiy banklarning 6 ta vakolatxonasi o'z faoliyatini yuritmoqda, ular bilan respublikamiz tijorat banklari tomonidan keng qamrovli va o'zaro manfaatli aloqalari o'rnatilgan. Respublikamizning barcha hududlarida tijorat banklarining tarmoqlari yanada kengayib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga banklarning filiallari soni 846 taga yetdi.

Banklarning umumiy kapitali va depozitlar bazasining yanada mustahkamlanishi banklarning ichki manbalar hisobiga kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'sishini moliyaviy qo'llab- quvvatlashga xizmat qilmoqda. Xususan, tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 28,2 foizga oshib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 56,2 trln.so'mga yetdi. 2014 yilda tijorat banklarining kredit qo'yilmalari umumiy hajmi 2013 yilga nisbatan 31,2 foizga o'sib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 34,8 trln so'mni tashkil etdi.¹

¹ <http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti) // 2014 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bank tizimini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu sababli ham hozirga kelib respublikamizda bank tizimi bozor infratuzilmasining eng rivojlangan bo'g'inlaridan biriga aylanib ulgurdi. Ayni vaqtda bank tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi butun iqtisodiyotimizning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining faoliyati ko'p jihatdan ularning soliqqa tortish jarayonlariga bog'liqdir.

Davlatning bozor iqtisodiyotiga ta'sir o'tkazishida soliqlarga alohida e'tibor qaratiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday davlat soliq siyosatidan keng foydalanadi. Soliqlar hamda butun soliq tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitini boshqarishning kuchli vositasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: "Soliq yukini yanada kamaytirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb etadi", - deya e'tirof etib o'tdi.²

O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.³

Bank tizimi davlat iqtisodiyoti rivojlanishidagi asosiy va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu o'rinda, tijorat banklari kapitalni taqsimlovchi va davlatning ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi moliya sohasining ajralmas qismidir. Tijorat banklari bir qancha faoliyat turlarini amalga oshirish bilan birga belgilangan va o'rnatilgan soliq turlarini ham to'laydilar. Shuningdek, tijorat banklarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar o'z ichiga soliqlarni to'lashdagi soliqqa tortish bazasi, belgilangan imtiyozlar, daromad va xarajatlarning shakllanishi kabilarni oladi.

Tijorat banklari tomonidan milliy iqtisodiyotda moliyaviy operatsiyalar bajarilishi bilan bir qatorda, ijtimoiy vazifalar ham bajariladi. Ijtimoiy

² Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: "O'zbekiston", 2014 y., 24-bet.

³ Karimov I. A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2015 y., 5-bet.

barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri tijorat banklaridagi soliq yukini pasaytirish hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishini ta'minlash va davlat funksiyalarini bajarish uchun tijorat banklarida soliqqa tortishni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Tijorat banklarini soliqqa tortishning ob'yektiv zarurligi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Birinchidan, soliqlarning tartibga soluvchi va rag'batlantirish funksiyalari tijorat banklari faoliyatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, soliqlar davlat tomonidan tijorat banklarini tartibga solish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Soliq va soliqqa tortish masalalari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotidagi eng dolzarb muammolardan bo'lib, respublika iqtisodiyotidagi yangi hodisalar, bozor iqtisodiyotiga o'tish tomon yo'naltirilganligi xalq xo'jaligini boshqarishning moliyaviy usullaridan, shu jumladan soliqlardan faollik va omilkorlik bilan foydalanishni taqozo etadi.

Tijorat banklarini soliqqa tortishda nazariy va amaliy jihatdagi kamchiliklar, huquqiy bazaning yetishmasligi, qonunchilikdagi uzluksiz o'zgarishlar **dissertatsiya mavzusining dolzarbligini** belgilaydi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida davlat statikasi qo'mitasi materiallari va tijorat banklarining yillik hisobotlari tahlillari ko'rsatishicha, ayrim tijorat banklarining moliyaviy holati talab darajasida emas. Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarini soliqqa tortish mexanzmini tahlil etish, kuzatilayotgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish masalalarini batafsil o'rganishni taqozo etadi. Ushbu e'tirof etilayotgan muammolar va ularni o'rganish masalalarining dolzarbligi ilmiy tadqiqot ishi uchun aynan shu mavzuni tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotning ob'yekti – O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti – mamlakatdagi tijorat banklari tomonidan soliqlar va yig'imlarni davlat budjetiga to'lash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar mavzuning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari – tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmini tahlil qilish, soliqqa tortish sohasidagi muammolarni o'rganib,

ularni hal etish yo'llarini aniqlash, soliq hisobini takomillashtirishga doir xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tijorat banklari va davlat budjetining manfaatlariga optimal mos keluvchi mexanizmini yaratish dissertatsiya ishining asosiy maqsadidir.

Ilmiy tadqiqot ishi oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- O'zbekistonda soliqqa tortish tizimining ahamiyati va asosiy tamoyillarini o'rganish;
- Respublikamiz tijorat banklarini soliqqa tortishning mohiyati va huquqiy asoslari bilan tanishish;
- Tijorat banklarini soliqqa tortishning rivojlanish bosqichlarini tahlil etish;
- Respublikamizda tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lovlar turlarini, ularni hisoblash tartibini, hisobini yuritishni o'rganish, tahlil etish;
- Tijorat banklarini soliqqa tortish tizimidagi muammolar va uni hal qilish yo'llarini o'rganish;
- Tijorat banklarini soliq to'lash tizimi va soliq hisobini takomillashtirish masalalarini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iboratdir:

- Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlarining mohiyati aniq ochib berildi;
- Banklar tomonidan to'lanadigan soliqlarning huquqiy asoslari keng yoritildi;
- Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqarning hisobi o'rganildi;
- Respublikamiz tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar bo'yicha amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi va ularning dinamikasiga baho berildi;
- Tijorat banklarini soliqqa tortish tizimi va soliq hisobidagi muammolar aniqlandi, bu muammolarni hal etish yo'llari ko'rsatildi;
- Respublikamiz banklarining soliq to'lash tizimi va soliq hisobini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishining asosiy masalalari tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lovlarning mohiyatini batafsil yoritib berish, tijorat banklarining soliq to'lash tizimi va soliq hisobini takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy farazlari tijorat banklarini soliqqa tortish tizimini baholash, tahlil natijalaridan kelib chiqib, aniq yechimlarni izlab topishdan iborat.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili) – Tijorat banklarini soliqqa tortish va uni hisobini takomillashtirish masalalari bir qator xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Tijorat banklarining daromadini shakllantirish va ularning foydasidan olinadigan soliqlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar A.Glinkin, L.Gonchrenko, E.Voznesenskiy, L.Drobozina, Y.Kornai, V.Kolesnikov, L.Pavlova, V.Rodionova, T.Yermoshina kabi xorijlik iqtisodchilarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan O.Kamolov, O.Iminov, F.Mullajonov, O.Olimjonov, O.Rashidov, I.Toymuxamedov, A.Temirov, Sh.Toshmatov, N.Shmakova kabi olimlarning ilmiy ishlarida tijorat banklarini soliqqa tortishning asosiy xususiyatlari, bank moliyaviy faoliyatini aniqlash va uni soliqqa tortishning ilmiy-amaliy jihatlar va ularni baholash muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan Qonunlardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlaridan, Qarorlaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlaridan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, turli matbuot organlarida e'lon qilingan materiallardan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy ishni yozish jarayonida respublikamiz bank tizimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan banklarning hisobot materiallari ham jalb etilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi – dissertatsiya ishida dialektik yondashuv, tarixiylik, mantiqiylik hamda analiz va sintez, statistik guruhlash va iqtisodiy tahlil, taqqoslash usullaridan foydalanildi. Ko'p hollarda

iqtisodiy sub'yektlarning hisobot ma'lumotlari asosida ular faoliyatini baholash usuli qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy tahlili – tadqiqot ishining nazariy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy izlanishlar asosida olingan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar mamlakatimizdagi tijorat banklari tomonidan soliq to'lash mexanizmini chuqurroq tadqiq etishga bag'ishlanib, kelajakdagi ilmiy tadqiqot ishlarida manba hamda oliy o'quv yurtlarida amaliy qo'llanma sifatida qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa shundan iboratki, tadqiqot ishida olingan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan ilmiy takliflardan tijorat banklarini soliqqa tortishga bag'ishlangan me'yoriy hujjatlarni tayyorlashda, amaldagi soliqqa tortish jarayonini yanada takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi - dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 118 betdan iborat bo'lib, 13 ta jadval va 17 ta rasmni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning birinchi bobida O'zbekistonda tijorat banklarini soliqqa tortishning zarurligi, mohiyati va huquqiy asoslari nazariy yoritilgan. Xususan, soliqqa tortish tizimining ahamiyati va asosiy tamoyillari, banklar tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lovlar turlari o'rganilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lovlar, ularning turlari, hisobi batafsil yoritilib, hozirgi davrdagi holati tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi bevosita banklarni soliqqa tortish tizimidagi mavjud muammolar va ularning yechimi, soliq hisobini takomillashtirishga bag'ishlangan hamda mavjud muammolar yuzasidan xulosa va takliflar bildirilgan.

I BOB. O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING ZARURLIGI, MOHIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. O'zbekistonda soliqqa tortish tizimining ahamiyati va asosiy tamoyillari

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz yashagan emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi.

Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan soliqlar o'zining hozirgi zamon ko'rinishiga kelgunga qadar juda ko'p o'zgarishlarga duchor bo'lgan. Juda ko'p iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari natijasida soliqlar davlatning o'z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan zaruriy element ekanligini ko'rsatganlar va shuning uchun ham ular o'zlarining asosiy e'tiborlarini jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalariga qaratganlar. Xo'jalik yuritish xalqaro amaliyotining eng murakkab va qarama-qarshiliklarni o'zida aks ettiruvchi muammolaridan biri - soliqlar muammosidir. Soliqlar ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun davlat tomonidan qonuniylik zahirida joriy etilgan qoidalar asosida undirib olinadigan majburiy to'lovlar bo'lib, davlat budjeti daromadlari asosan ulardan hosil bo'ladi. Milliy daromadni qayta taqsimlash mexanizmlaridan biri bo'lgan soliqlar orqali davlat budjeti daromadlarini shakllantirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda ulardan samarali foydalanish, ayniqsa, soliq to'lovlarining amalga oshirilishida tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirish nazarda tutiladi.⁴

Soliqlar ham yaratilgan jami ijtimoiy mahsulotning bir qismidir. Soliqlarning yuzaga kelishi yaratilgan qiymatning taqsimotiga asoslangandir. Bu esa o'z vaqtida moliyaviy munosabatlar va ularning soliqlarni harakatga keltiruvchi munosabatlarda to'liq o'z ifodasini topmoqda. Shu bois soliqlarni yuzaga kelishi va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etishi bevosita qiymatni

⁴ Mayburov I.A. i dr. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya. 2-e izd. Pererab. i dop. – M.: 2011 y., - 48 b.

yaratilishi bilan bog'liq bo'lishi lozim. Qiymatning yaratilish shu jumladan soliq munosabatlarini yuzaga keltiradi va uni takomillashtirib borilishiga ta'sir etadi.

Har qanday buyum, narsa, voqelikni chuqur bilish uchun uning mohiyatini chuqurroq tushunib yetish lozim. Soliqlarning mohiyati, ya'ni soliq va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda yuzaga keladi. Shunday ekan, soliqlarning mohiyatini ochayotganda uni qat'iy doimiy takrorlanib turadigan munosabatlarni tushunishimiz lozim. Soliqlarni doimiy qaytarilib turishi ularni iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq, shu bois soliqlar mazmuni faqat qiymat kategoriyasi orqali o'z mohiyatini ifodalashi mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, har qanday iqtisodiy kategoriya avvalo qiymat kategoriyasi sifatida shakllanadi, so'ng bunday voqelik harakati iqtisodiy munosabatlarda o'z ifodasini topadi.⁵

Soliqlarning zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda muayyan vazifalar bajarilishi zarurligidan kelib chiqadi. Davlat o'z funksiyalarini to'liq bajarishi uchun moliyaviy manbalarga suyanishi lozim. Buning yagona yo'li soliqlardir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliqlarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Soliqlar - Soliq Kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari.⁶

O'zbekiston Respublikasi hududida Soliq Kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.⁷ Bu soliq turlarini umumdavlat soliqlari va mahalliy soliq turlariga bo'lib o'rganish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari bilan belgilangan, ular tomonidan o'z vakolatiga muvofiq ravishda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ishlatiladigan soliqlar mahalliy soliqlar hisoblanadi.

⁵ X.Oybekova. Moliyaviy institutlarni soliqqa tortish: O'quv qo'llanma -T.TDIU, 2010y. – 30 b.


⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y, 12-modda.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y, 23-modda.



1-rasm. Umumdavlat soliqlar va majburiy to'lov turlari.⁸

⁸ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 23-moddasidan foydalanib muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan.



2-rasm. Mahalliy soliqlar va majburiy to'lov turlari.⁹

Yuqoridagi soliq va majburiy to'lov turlarini iqtisodiy mohiyatiga qarab egri va to'g'ri soliq sifatida ajratishimiz mumkin. To'g'ri soliqlar – bevosita daromad oluvchi mulk egasining daromadi (foydas) dan olinadi. Bunday soliqlarda huquqiy va haqiqiy soliq to'lovchi bitta shaxs bo'ladi. Uning manbai bo'lib xo'jalik faoliyati natijasida erishilgan moliyaviy yakun hisoblanadi. Egri

⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 23-moddasidan foydalanib muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan.

solliqlar faoliyatning moliyaviy yakuniga bog'liq bo'lmaydi. Ular sotilayotgan tovarlar va xizmatlar oborotiga ustama tarzda belgilanadi.¹⁰

Solliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar solliq to'lovchilar bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai solliqlardir.

Respublikamizda o'ziga xos solliq tizimi shakllantirilgan bo'lib, mavjud solliqlar bir tomondan davlat budjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyati rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgandir. Ana shu ikki tomonlama munosabatlarning uyg'unligini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning barcha sohalarida bo'lgani kabi solliq tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va ularning nazariy hamda amaliy jihatlari, natijalari turli darajada o'rganilmoqda. Tarixan solliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Solliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi. Davlat solliqlarsiz mavjud bo'la olmaydi, solliqlar bu davlatning ajralmas qismidir. Demak, davlat va davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning mavjudligi, solliqlarni amal qilishini taqozo etadi.

Solliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida solliqlardan foydalanadi. Solliqlar davlat budjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti daromadlarining ham asosiy qismi solliqlar hisobiga shakllantiriladi. Milliy daromadni qayta taqsimlash mexanizmlaridan biri bo'lgan solliqlar orqali davlat budjeti daromadlarini shakllantirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda ulardan samarali

¹⁰ Yuldashev A. Solliq va solliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T: Iqtisod va moliya. 2007 y., - 78 b.

foydalanish, ayniqsa, soliq to'lovlarining amalga oshirilishida tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirish nazarda tutiladi.

Bozor iqtisodiyoti sog'lom amal qilib kelayotgan rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimini sistematik takomillashtirib borish tabiiy hol deb qaraladi. Bizning respublikamizda ham iqtisodiyotda bozor munosabatlarining rivojlana borishi jarayonida soliq tizimining tarkibiy qismlari va elementlari qaytadan ko'rib chiqib borilmoqda, buning natijasida esa soliqlarning ayrim turlari bekor bo'lib va ular o'rniga soliqlarning zamonaviy turlari qabul qilinmoqda.


Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar budjet daromadlarini tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni, raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga, kichik biznesni rivojlantirishga, umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyili asosida tashkil etilgan bo'lib, soliq sohasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda soliq siyosati mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich davomiylik kasb etgan holda amalga oshirilyapti.

Soliq tizimining eng muhim vazifasi - ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir. Korxonalar tomonidan to'lanayotgan soliqlar ham ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning, ishlarning rivojlanishiga rag'batlantiruvchi vazifani o'tashi va o'z mol-mulkidan samarali foydalanishiga olib kelishi lozim.

Quyida soliq solishning tamoyillari haqida to'xtalamiz:



3- rasm. Soliq solish tamoyillari.¹¹

Soliq solishning majburiyligi prinsipi - har bir shaxs kodeksda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart. Hech kimning zimmasiga kodeksda nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

Soliq solishning aniqligi prinsipi - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilashda, agar kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi kerak.

Soliq solishning adolatlilik prinsipi - Soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l

¹¹ Rasm O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 6-11 moddalaridan foydalanib muallif tomonidan tayyorlangan.

qo'yilmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi - soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsipi - soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Barchaning e'tibori uchun rasmiy e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biror bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi - soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.¹²


Soliqlar muayyan maqsadlarni ko'zlashdan tashqari jamiyatning ijtimoiy tarkibiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratadi, ular vositasida aholining foydalari darajasi boshqarib turiladi, kam ta'minlangan va yordamga muhtoj tabaqalar himoyalanganlari holda juda ko'p foyda oluvchi tabaqalar foydalarining salmoqli qismi budjetga jalb etib boriladi.

Iqtisodiyotimizdagi barcha soliqqa tortilishi lozim bo'lgan ob'yektlar, soliqqa tortilayotganda, ya'ni davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi faoliyatda ma'lum bir elementlar bo'lishini taqazo etadi.

Soliq to'lovchilar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovga tatbiqan

¹² O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y, 6,7,8,9,10,11 m.

belgilanadi.



4-rasm. Soliqqa tortish elementlari. ¹³

Soliq solish ob'yekti soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.

Soliq solinadigan baza soliq solish ob'yektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardan qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarni ifodalaydi.

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasining qarori bilan belgilanadi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek, imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

¹³ X.Oybekova. Moliyaviy institutlarni soliqqa tortish: O'quv qo'llanma -T.TDIU, 2010 y. – 34 b.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim turdagi soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarishda ularning to'lanishi lozim bo'lgan eng kam miqdori belgilanadi.

Soliq davri u tugagandan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.

Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi. Joriy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo'lmaydi.¹⁴

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida, qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan, soliq va boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof e'tiladi.

Mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlarni berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y, 25-29 m.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar bo'shagan mablag'larni muayyan maqsadlarda yo'naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirib olinadi.¹⁵

Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjat bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi yuridik shaxs tomonidan muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to'lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.¹⁶

Soliq moliyaning bir bo'limi sifatida kelajakda rivojlanish va yirik soha sifatida shakllanish tomon ketmoqda. Soliqlar qadimiy moliyaviy vositalardan bo'lib, davlat bilan birga vujudga kelgan va davlat idoralari faoliyatini ta'minlash, davlat oldida turgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar manbai bo'lib xizmat qilib kelgan.

Soliq va soliqqa tortish masalalari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotidagi eng dolzarb muammolardan bo'lib, respublika iqtisodiyotidagi yangi hodisalar, bozor iqtisodiyotiga o'tish tomon yo'naltirilganligi xalq xo'jaligini boshqarishning moliyaviy usullaridan, shu jumladan soliqlardan faollik va omilkorlik bilan foydalanishni taqozo etadi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – Toshkent, 2014. 30-modda.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – Toshkent, 2014. 43-modda.

1.2. Tijorat banklarini soliqqa tortishning mohiyati va huquqiy asoslari

Tijorat banklari boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar singari yakuniy maqsadi foyda olishga qaratilgan muassasa hisoblanadi. Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'lari harakati va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi. Bu xizmatlar asosida banklar mablag'larga ega bo'ladilar va ular o'z faoliyatini yuritish uchun sarflanadi. Iqtisodiyotda tarkibiy va sifat o'zgarishlar davom etayotgan bugungi kunda banklar resurs kapitalining ko'payishi, bank xizmatlari doirasining yanada jadal kengayishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish evaziga raqobatning kuchayishi, jahon moliya-bank tuzilmalari bilan aloqalarning rivojlanishi va bank-moliya innovatsiyalari segmentida loyihalarning ishlab chiqilishi O'zbekiston zamonaviy bank tizimining eng muhim tavsifi sifatida namoyon bo'lmoqda. Banklarning kapitallashuv darajasini va bank likvidligining oshirilishi pirovardida ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ma'lumki, xo'jalik faoliyati natijasida qo'lga kiritilgan daromadlar qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda soliq va majburiy ajratmalar to'lashga majburdir. Shunga ko'ra tijorat banklari ham soliq to'lovchi muassasa hisoblanadi.


Davlatning soliq tizimida tijorat banklari alohida o'rin tutadi. Tijorat banklarini soliqqa tortish, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlardan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Misol tariqasida olib qaraganda, davlat soliq xizmati organlari jismoniy va yuridik shaxslardan soliqlarni undirishni amalga oshiruvchilar hisoblanadi. Tijorat banklari esa bu borada kengroq funksiyaga ega tashkilotdir. Shuning uchun ham tijorat banklarida soliq tizimini chuqurroq bilish talab etiladi.

Tijorat banklarining soliq tizimidagi o'ziga xoslik ikkita bir-biriga mos bo'lmagan holatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, tijorat banklari soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida soliqlar undirilishi va uni nazorat qilish

yuzasidan vositachi hisoblanadi (5-rasm). Ikkinchidan, tijorat banklari bir qator soliqlarni to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklari soliq organlari bilan 3 shaxs sifatida muomalaga kirishadi:

1. Bevosita soliq to'lovchi sifatida;
2. Soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida vositachi sifatida;
3. Soliq agenti sifatida (Soliq to'lovchilarning pul mablag'laridan soliqlarni ushlab qoluvchi).¹⁷



5-rasm. Tijorat banklarining boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlari soliqlarini undirishdagi roli.¹⁸

Banklar soliq to'lovchi bo'lib Soliq Kodeksiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi.

Soliq agentlari sifatida banklar zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish yuklatilgan.¹⁹

Tijorat banklari boshqa soliq to'lovchilar bilan budjet o'rtasida soliq-pul munosabatlarida qatnashganliklari sababli davlat ularning zimmasiga ham

¹⁷ X.Oybekova. Moliyaviy institutlarni soliqqa tortish: O'quv qo'llanma -T.TDIU, 2010y. – 37 b.

¹⁸ Rasm O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.


¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y, 13-m.

ko'pgina majburiyatlarni yuklaydi. Banklarning asosiy vazifasi soliq to'lovchilarni to'lovlarini va soliqlarini o'z vaqtida davlat budjetiga yoki nobudjet fondlariga tushirishdir.

Soliqlar, jumladan tijorat banklaridan undiriladigan soliqlar bu iqtisodiy-moliyaviy kategoriya bo'lib ularning mohiyatini ochishda moliyaviy voqeliklarni, munosabatlarni chuqur atroflicha o'rganish soliqlar mohiyatini ochishda muhim ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror va samarali faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimini yaratish masalasi mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridanoq hukumat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilab olindi. Yurtimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng barcha sohalarida bo'lgani kabi banklarni soliqqa tortish tizimida ham qator islohatlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada tijorat banklarining soliqqa tortish mexanizmidagi islohotlarni quyidagi to'rt bosqichga ajratilgan holda tahlil qilish mumkin:



6-rasm. Tijorat banklarini soliqqa tortishning rivojlanish bosqichlari.²⁰

²⁰ X.Oybekova. Moliyaviy institutlarni soliqqa tortish: O'quv qo'llanma -T.TDIU, 2010y. – 37 b.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi qonunida shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil siyosatini olib boradi", deb ko'rsatilgan, qolaversa, davlatning soliq siyosati asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ko'rsatib berilgan.

1991-1994 yillarda O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini tashkil etish "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq amalga oshirildi va soliqlarning fiskal funksiyasini qo'llash bosqichi bo'lgan.

Ikkinchi bosqich - 1995 yildan boshlanib, bank tizimini rivojlantirish va rag'batlantirish maqsadida tijorat banklari daromad solig'i, yig'imlar va to'lovlarni to'lashdan ozod qilindi.

1998-2006 yillardagi uchinchi bosqichda tijorat banklari Soliq Kodeksiga muvofiq umumdavlat, mahalliy soliqlar va yig'imlar belgilangan tartibda amalga oshirildi.

To'rtinchi bosqich 2007 - moliya yilidan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda Soliq Kodeksining yangi tahriri ishlab chiqildi, tijorat banklari uchun imtiyozlar yaratilib, tijorat banklarining kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ularning investitsiya jarayonlarida ishtirokini faollashtirish maqsadida soliq yukini kamaytirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Tijorat banklari moliyaviy hisobotlarni davlat soliq xizmati organlariga elektron tarzda taqdim etish tizimi joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 5-moddasiga binoan, Soliq to'grisidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prinsplariga asoslanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarining daromadi qismi bo'yicha tushumlar ijrosini bajarishda tijorat banklarining hissasi sezilarli o'rin kasb etadi. Ma'lumki, har bir tijorat banki o'z

faoliyatini amalga oshirish davomida yuqori foyda olishga harakat qiladi. Banklarning oladigan foydasining yuqori bo'lishi esa budjetga to'lanadigan soliqlar miqdorining ham mos ravishda yuqori bo'lishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, budjet daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

Tijorat banklarini soliqqa tortish tizimi bank tizimini shakllantirishning barqarorligi va mustahkamligini ta'minlaydi va davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdagi ta'sirini ko'rsatadi. Banklar iqtisodiy mexanizmning bir qismi, iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiluvchi muhim sohadir.

Banklar moliya sohasida va mamlakatning iqtisodiy tizimida alohida o'rin tutuvchi soliq munosabatlaridagi muhim ishtrokchilardir. Iqtisodiy tizimda banklarning vositachilik missiyasi belgilangan tartibda soliq organlariga davlat va uning moliyaviy tizimiga ularning majburiyatlarini bajarish uchun soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishi to'g'riligini tekshirish uchun bank ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Tijorat banklari tomonidan milliy iqtisodiyotda moliyaviy operatsiyalar bajarilishi bilan bir qatorda, ijtimoiy vazifalar ham bajariladi. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri tijorat banklaridagi soliq yukini pasaytirish hisoblanadi. Bu orqali nafaqat bank tizimini qo'llab-quvvatlash, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish hamda mamlakatda ijtimoiy turmush darajasini yaxshilashga erishish mumkin. Chunki, banklar foydasining katta qismini o'z ixtiyorida qolishi ularning kreditlash – investitsion salohiyatini yuksalishiga sabab bo'ladi va bu bilan ishlab chiqaruvchilarning pulga bo'lgan ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish imkoni paydo bo'ladi. Natijada mamlakatda yangi ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanib, yangi-yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi va aholining turmush darajasi yuksaladi.

Har bir davlatda soliq tizimi, jumladan soliqqa tortish mexanizmi hukumatning tegishli qonunlari va normativ aktlari tomonidan tartibga solib

turiladi. Bizning O'zbekiston Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan soliqqa tortish tizimi shakllanib, rivojlanib hamda takomillashib bormoqda.


Tijorat banklarini davlat budjeti bilan aloqasi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi va Markaziy bankning bir qator me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, tijorat banklari tomonidan soliqlarni hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi, shuningdek tijorat banklari tomonidan budjetga soliqlarning ayrim turlarini hisoblash va to'lashning o'ziga xos xususiyatlarini tartibga soladi. Tijorat banklari har bir moliya yil uchun buxgalteriya hisobi siyosatini ishlab chiqadi va soliqlar, majburiy to'lovlarni to'lashda hamda hisoblashda ushbu siyosatdan foydalanib amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgilaydi, soliq ishlarini yuritish tartibotini va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni tartibga solib turadi. Mamlakatimizda amaliyotga joriy etilgan Soliq Kodeksining ahamiyatli jihati shundaki, bir tomondan, u soliq munosabatlarini majmualilik, tizimlilik va izchillik negizida bosqichma-bosqich takomillashtira borish orqali soliqqa tortishning:

- tamoyillari;
- tizimi;
- turlari;
- hisob-kitoblari;
- huquqiy asoslari kabi jihatlarini o'zida mujassam etgan, ikkinchi tomondan, soliq qonunchiligiga oid me'yoriy hujjatlarni tartibga solib, u soliq tizimining yaxlit barqaror huquqiy asosi bo'lib qolmoqda.

Respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, soliqqa oid qonunlar, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi

qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlardan iborat. Buni quyidagi chizmada yaqqol ko'rishimiz mumkin:



7-rasm. Tijorat banklarini soliqqa tortishda asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar.²¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 25-dekabrda 136-sonli "Soliq Kodeksini tasdiqlash to'g'risida" gi qaroriga asosan 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab "O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi" kuchga kiritildi. Ushbu Kodeks soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Kodeks bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

²¹ Rasm lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi) sayti asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar Adliya Vazirligida 2007 yil 9 avgustda 1701- son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari, kredit uyushmalari va mikro kredit tashkilotlari tomonidan budjetga soliqlarni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida" gi Nizomga asoslanib, hisoblanib to'lanar edi. Bundan tashqari bir qancha Nizom va yo'riqnomalar amalda bo'lgan. Lekin hozirda bekor qilingan bo'lib, amalda qo'llanilmaydi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda tijorat banklarini soliqqa tortish bo'yicha ishlab chiqilgan yo'riqnoma va tartiblarning deyarli hech biridan amalda foydalanilmaydi. Tijorat banklarini soliqqa tortish boshqa yuridik shaxslardan birmuncha farq qiladi. Bu esa, Soliq Kodeksi asosida aynan banklarni soliqqa tortish tizimida foydalaniladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Har bir ishlab chiqilgan soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar Soliq Kodeksi qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjat Kodeksga muvofiq bunday hujjatni qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa yoki normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa, Kodeks bilan ta'qiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo'l qo'ysa, Soliq Kodeksiga muvofiq emas deb topiladi.

Yangi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishini, imtiyozlar to'liq yoki qisman bekor qilinishini, soliq solinadigan baza oshirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari ular rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida uch oy o'tgach, amalga kiritiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar ularda kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, ular rasmiy e'lon qilingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliya yilida e'lon qilinadigan "O'zbekiston Respublikasining joriy yil uchun asosiy

makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi Qarorlari ham me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilmoqda. Davlat budjetiga to'lanadigan soliq va yig'implarning stavkalari va miqdorlari har moliya yili uchun ushbu qaror asosida belgilab beriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi tomonidan chiqariladigan turli nizom va qarorlar ham me'yoriy hujjat hisoblanadi. Shuningdek, tijorat banklariga beriladigan imtiyozlarni belgilashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu huquqiy hujjatlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 10 - oktyabrdagi 3154-sonli "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 - noyabrdagi 4053 -sonli "Iqtisodiyotnig real sektoridagi korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi 4010 –sonli "Tijorat banklariga iqtisodiy nochor korxonalarni realizatsiya qilish tartibini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28-iyuldagi 1166 - sonli "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1438 –sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi Qarori.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11-martdagi 1501 -sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda 2270 – sonli “O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida” gi Qarori.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ – 2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Qarori.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 19 oktabrda 2021 – son bilan ro'yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida” gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 2-aprelda 1463-son bilan ro'yxatga olingan “Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni budjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida” gi Nizom ham huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklariga soliq to'lovchilar bilan davlat budjeti o'rtasida tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy hisobvaraqlarida mavjud pul mablag'lari bo'yicha o'z vaqtida soliq va majburiy to'lovlarni o'tkazilishi yuzasidan javobgarlik yuklatilgan. Bu javobgarlikni banklar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2012 yil 15 martda 2342 – son bilan ro'yxatdan o'tgan “Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning bank hisobvarag'laridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida”gi yo'riqnomaga asosan amalga oshiradilar.

1.3. Banklar tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lovlar turlari


O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarining daromadi qismi bo'yicha tushumlar ijrosini bajarishda tijorat banklarining hissasi sezilarli o'rin kasb etadi. Ma'lumki, har bir tijorat banki o'z faoliyatini amalga oshirish davomida yuqori foyda olishga harakat qiladi. Banklar oladigan foydasining yuqori bo'lishi esa budjetga to'lanadigan soliqlar miqdorining ham mos ravishda yuqori bo'lishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, budjet daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

Tijorat banklari Soliq Kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar.

Bunda, soliqlarni to'lovchilar bo'lib mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan tijorat banklari va ularning filiallari hisoblanadi.

Tijorat banklarining budjet bilan olib boradigan munosabatlari tadbirkorlik sub'yektlarni soliqqa tortish jarayonlaridan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik tijorat banklari davlat budjeti bilan bo'ladigan munosabatlarda turli xildagi vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi. Avvalo tijorat banklariga soliq to'lovchilar bilan davlat budjeti o'rtasida tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy hisobvaraqlarida mavjud pul mablag'lari bo'yicha o'z vaqtida soliq va majburiy to'lovlarni o'tkazilishi yuzasidan javobgarlik yuklatilgan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 15.03.2012 yilda 2342 – son bilan ro'yxatdan o'tgan “Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning bank hisobvarag'laridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida”gi yo'riqnoma). Shuningdek tijorat banklari ham o'z navbatida soliq qonunchiligida o'rnatilgan soliqlar bo'yicha davlat budjetiga hisob - kitoblarni amalga oshiradilar.

Hozirda amaldagi qonunchilikka asosan umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi tijorat banklari quyidagi soliqlarni to'laydilar:




8 - rasm. Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliq turlari ²².

Bundan tashqari tijorat banklari aksiz solinadigan tovarlarni import qiladigan bo'lsa, aksiz solig'i to'lashlari, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan, ya'ni norezidentlar xizmatlaridan foydalanayotgan tijorat banklari qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashlari, shuningdek tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq b'lmagan daromadlarini o'tkazib berganda, mazkur daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlar chegirib tashlanmagan holda to'lov manbaida soliq solinishi zarurligini e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Bunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan xorijiy moliya institutlariga to'lanadigan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

Yuqoridagi keltirilgan soliqlardan tashqari tijorat banklari quyidagi majburiy to'lovlarni amalga oshiradilar:

²² Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2013. - № 8. – 22 b.



9-rasm. Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan majburiy to'lov turlari.²³

Tijorat banklari uchun yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash uchun ob'yekt sifatida mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar olinsa, qolgan uchta majburiy ajratma, ya'ni budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma, respublika yo'l jamg'armasiga, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan ob'yekt bo'lib tijorat banklarining o'z professional faoliyatidan oladigan daromadlari hisoblanadi, lekin tijorat banklarining professional faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa daromadlar mazkur maqsadli jamg'armalarga ajratiladigan majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solinadigan ob'yekt sifatida qaralmaydi.

Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliq stavklari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjet parametrlari to'g'risida" gi 2014 yil 4 dekabr PQ – 2270 sonli qarori asosida belgilangan.

²³ Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2013. - № 8. – 23 b.

Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliq stavkalari ²⁴

№	Soliq turlari	Soliq stavkalari
1	Foyda solig'i	15%
2	Qo'shilgan qiymat solig'i	20%
3	Mol - mulk solig'i	4%
4	Yer solig'i	Zonalar bo'yicha belgilangan stavkalarda
5	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	8%
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 kub.metr (so'mda) yer usti suv manbalar uchun – 61,9 yer osti suv manbalar uchun – 78,6

Soliq va majburiy to'lovlarni to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida hisoblash, qayta hisoblash va ularning natijalarini tekshirish uchun bosh buxgalter (budjet bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi buxgalter) quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

1. Filialning hisobot davridagi jamlanma balansi;
2. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot;
3. Hisobot kuniga qoldiq;
4. Asosiy vositalar, debitor, kreditor qarzdorliklar, daromadlar, xarajatlari (16300, 16400, 22400, 22800...) va boshqa asosiy hisobvaraqlar tarixi.

Birinchi navbatda davr xarajatlari tarkibida budjetga majburiy ajratma va soliq to'lovlarini to'g'ri hisoblanganligi va to'langanligi tekshiriladi. Chunki uning ortib yoki kamayib ketishi foyda solig'i (15%) summasiga, shuningdek,

²⁴ Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli Qarori asosida muallif tomondan tuzilgan.

unga bog'liq holda ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish va obodonlashtirish solig'i (8%) ga o'z ta'sirini ko'rsatadi.²⁵

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 1991- yilga qadar asosan, davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 % gacha bo'lgan qismini budjetga olib ketar edi.

Respublikamiz ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tishi tufayli mamlakatimiz xo'jalik turmushida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Natijada mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar imkoniyatini oshishi, bozor infrastrukturasini rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi sub'yektlarning xo'jalik yuritish samaradorligini ta'minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to'sqinlik qila boshladi. Chunki, foydadan ajratma o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra faqat davlat korxonalari foydasidan ajratilishi lozim edi.


Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish, xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992-yildan boshlab barcha turdagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar «daromad» solig'ini to'lashga o'tdilar.

1995-yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Shu bilan birga tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari uchun daromad solig'i tartibi saqlab qolindi. Tijorat banklari 2007- yildan boshlab foyda solig'i to'lashga o'tdilar.

Tijorat banklari to'laydigan soliqlardan foyda solig'i eng yirik soliq hisoblanib, ushbu soliq tijorat banklarining jami to'laydigan soliqlari ichida salmog'i yuqoriligi, shuningek hisoblanishining murakkabligi jihatidan ham muhimdir.

²⁵ AT "Aloqa bank" ning 2015 yil uchun buxgalteriya hisobi siyosati, 98-bet.

Tijorat banklarida foyda solig'ini hisoblash jarayonlarini quyidagicha chizmada aks ettirish mumkin:



10-rasm. Tijorat banklarida foyda solig'ini hisoblash jarayoni. ²⁶

Tijorat banklarida foyda solig'ini hisoblashda dastlab bank daromadlaridan xarajatlari chegirilgan holda aniqlanadigan soliq to'lagunga qadar foydani hisoblab topish zarur. Bunda alohida e'tibor berish lozimki, tijorat banklari

²⁶ Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2013. - № 8. – 23 b.

tomonidan bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish shart bilan soliqlardan imtiyoz berilgan operatsiyalar bo'yicha olingan daromadlar va qilingan xarajatlar ham soliq to'lagunga qadar foydani hisoblashda inobatga olinishi lozim. Chunki O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 02.04.2005 yilda 1463 – son bilan ro'yxatdan o'tgan “Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni budjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida”gi Nizomga muvofiq bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan soliq imtiyozlari berilganda soliqlar umumbelgilangan tartibda hisoblanishi, hisoblangan summa budjetga o'tkazilmasdan alohida hisobvaraqa jamlanishi va soliq imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishi bo'yicha hisobi yuritilishi lozim. Lekin tijorat banklarining hisobi hisobvaraqlari rejasida bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyozlarini yuritish bo'yicha hisobvaraqlarning keltirilmaganligi bunday imtiyozlarning hisobini yuritishda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ma'lumki korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishda alohida 8840 – “Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari” hisobvarag'i kiritilgan bo'lib, ushbu hisobvaraqa orqali bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyozlari hisobining yuritilishi belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga yuqorida keltirilgan Nizomga muvofiq soliq imtiyozlari berilishi natijasida bo'shagan mablag'lardan maqsadli foydalanganligini tasdiqlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'yektlar har yili yillik moliyaviy hisobotga qo'shib davlat soliq xizmati organlariga o'rnatilgan shaklda hisob-kitob taqdim etishlari shart. Bunda soliq imtiyozlari natijasida bo'shagan mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalanilmaganligi dalillari aniqlanganda ushbu mablag'lar jarima jazosini qo'llab, penya hisobga olingan holda budjetga undiriladi.²⁷

²⁷ Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2013. - № 8. – 23 b.

Tijorat banklariga bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyozlariga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.03.2011 yildagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 1501 – sonli Qaroriga muvofiq berilgan imtiyozlarni keltirish mumkin. Ushbu qarorga asosan imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi resurslari hisobidan kredit berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan yuridik shaxslar foydasidan to'lanadigan soliqdan 2011 yil 1 apreldan boshlab 2016 yilning 1 yanvargacha ozod etilgan.

Yuqoridagi hisob – kitoblar asosida aniqlangan soliq to'lagunga qadar foydaga tekinga olingan mol – mulk qiymati qo'shiladi. Bunda tekinga olingan mol –mulk qiymati qo'shiladi. Bunda tekinga olingan mol – mulk qiymatini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 13.08.2004 yilda 773-17-son bilan ro'yxatdan o'tgan va Markaziy bank boshqaruvining 17.07.2004 yildagi 15/3-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi" ga muvofiq 30905 – "Tekinga olingan mulklar" hisobvarag'ida amalga oshiriladi. 30905 - "Tekinga olingan mulklar" hisobvarag'ining kredit tarafida aksionerlardan tekinga olingan mol – mulkning qiymati aks ettiriladi, debet tarafida o'rnatilgan tartibda taqsimlanmagan foydaga o'tkazilgan summasi aks ettiriladi. Ta'kidlash joizki, Soliq Kodeksining 149-moddasining ikkinchi xAToshisiga asosan tijorat banklarining soliq solinadigan foydasidan ular o'z filiallariga beradigan mol-mulk qiymati chegirib tashlanadi. Tekinga olingan mol-mulk qiymatining uni oluvchi yuridik shaxs soliq solinadigan foydasini aniqlashda hisobga olinishi uchun Soliq Kodeksining 135- moddasi asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu moddaga muvofiq soliq to'lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar soliq to'lovchining daromadi bo'ladi.

Mol - mulk , mulkiy huquqlar tekin asosda olinayotgan oluvchi shaxsning daromadlari bozor qiymati bo'yicha belgilanadi.

Mol – mulkning, mulkiy huquqlarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tashkilotning baholash to'g'risidagi hisoboti bilan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- Jo'natish, yetkazib berish yoki topshirish hujjatlari;
- Yetkazib beruvchilarning narxlarga oid ma'lumotlari (prays - varaqlar);
- Ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar;
- Birja ma'lumotlari;
- Davlat statistikasi oganlarining ma'lumotlari.

Lekin tijorat banklari shunga e'tibor berishlari lozimki, Soliq Kodeksining 129- moddasi uchinchi xatboshisi 7 – bandiga asosan, agar mablag'larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o'tkazish, ishlarni bajarish xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa, tekin olingan mablag'lar (mol – mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar soliq to'lovchining daromida sifatida qaralmaydi.

Tekinga olingan mol - mulk asosiy vosita bo'lsa, kirim qilinayotganda asosiy vositaning boshlang'ich qiymatini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 20.01.2004 yilda 1299-son bilan ro'yxatdan o'tgan va Moliya Vazirligining 09.10.2003 yildagi 114-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlarining "Asosiy vositalar" deb nomlangan 5-son standariga asosan ish tutishi zarur. Unga muvofiq tekinga olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati deb tekinga olingan asosiy vositani ro'yxatdan o'tkazish yig'implari, davlat bojlari, va boshqa shunga o'xshash to'lovlar bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi ularning joriy qiymati tan olinadi.

Soliq solinadigan bazaga qayta qo'shiluvchi yoki Soliq Kodeksining 147 – moddasida keltirilgan chegirilmaydigan xarajatlar. Ushbu xarajatlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

- ✓ o'rnatilgan me'yordan ortiqcha qilingan xarajatlar;
- ✓ homiylik va xayriya yordamlari tarzidagi xarajatlari;
- ✓ jarima xususiyatidagi xarajatlar;
- ✓ bevosita banklar faoliyatida talab etilmaydigan xarajatlar.

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan majburiy to'lovlar stavkalari ²⁸

№	Soliq turlari	Soliq stavkalari
1	Yagona ijtimoiy to'lov shu jumladan: Pensiya jamg'armasiga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga Kasaba uyushmalar federatsiyasiga	25% 24,8% 0,1% 0,1%
2	Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma	1.6%
3	Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma	1.4%
4	Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma	0.5%
5	O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividend va foizlar ko'rinishida to'lanadigan daromadiga soliq	10%

Majburiy to'lovlar stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ - 2270 sonli qarori ilovalarida ko'rsatilgan.

²⁸ Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ-2270-sonli Qarori asosida muallif tomondan mustaqil tayyorlangan.

I bob bo'yicha xulosa

Soliqlarning zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda muayyan vazifalar bajarilishi zarurligidan kelib chiqadi. Davlat o'z funksiyalarini to'liq bajarishi uchun moliyaviy manbalarga suyanishi lozim. Buning yagona yo'li soliqlardir.

O'zbekiston Respublikasi hududida Soliq Kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi. Bu soliq turlarini umumdavlat soliqlari va mahalliy soliq turlariga o'lib o'rganish mumkin.

Soliq tizimining eng muhim vazifasi - ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir.

Tijorat banklarining soliq tizimidagi o'ziga xoslik ikkita bir-biriga mos bo'lmagan holatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, tijorat banklari soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida soliqlar undirilishi va uni nazorat qilish yuzasidan vositachi hisoblanadi. Ikkinchidan, tijorat banklari bir qator soliqlarni to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklarini soliqqa tortish tizimi bank tizimini shakllantirishning barqarorligi va mustahkamligini ta'minlaydi va davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdagi ta'sirini ko'rsatadi. Banklar iqtisodiy mexanizmning bir qismi, iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiluvchi muhim sohadir.

Respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, soliqqa oid qonunlar, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlardan iborat.

Tijorat banklarini davlat budjeti bilan aloqasi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi va Markaziy bankning bir qator me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan

bo'lib, tijorat banklari tomonidan soliqlarni hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi, shuningdek tijorat banklari tomonidan budjetga soliqlarning ayrim turlarini hisoblash va to'lashning o'ziga xos xususiyatlarini tartibga soladi. Tijorat banklari har bir moliya yil uchun buxgalteriya hisobi siyosatini ishlab chiqadi va soliqlar, majburiy to'lovlarni to'lashda va hisoblashda ushbu siyosatdan foydalanib amalga oshiradi.

Tijorat banklari Soliq Kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar.

Bunda, soliqlarni to'lovchilar bo'lib mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan tijorat banklari va ularning filiallari hisoblanadi.

Tijorat banklari to'laydigan soliqlar:

- Foyda solig'i;
- Qo'shilgan qiymat solig'i;
- Mol mulk solig'i;
- Yer solig'i;
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Yuqoridagi keltirilgan soliqlardan tashqari tijorat banklari quyidagi majburiy to'lovlarni amalga oshiradilar:

- Yagona ijtimoiy to'lov;
- Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma;
- Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma;
- Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma.


Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliq stavklari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjet parametrlari to'g'risida" gi 2014 yil 4 dekabr PQ – 2270 sonli qarori asosida belgilangan.

II BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING HISOBI VA SOLIQQA TORTISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan umumdavlat soliqlar va ularning hisobi

Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan vazifalaridan kelib chiqib, o'z budjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga va boshqa majburiy to'lovlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida muhim strategik vazifalarni bajaradi, shuning uchun uning budjeti ham katta bo'lishi lozim. Tijorat banklari ham qator umumdavlat soliqlarini budjetga to'laydilar. Umumdavlat soliqlari respublika budjetiga to'planadi hamda budjetning asosiy daromad manbai hisoblanadi.²⁹

Tijorat banklarining yakuniy maqsadli faoliyati erishilgan foydasi hisoblanadi. Bank foydasi bank faoliyatida, shu jumladan soliqlarni to'lashda muhim ahamiyatga ega.



11-rasm. AT “Aloqabank” ning soliq to'lagunga qadar foyda dinamikasi.³⁰

²⁹ Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T: Iqtisod va moliya. 2007 y., - 78 b.

³⁰ Rasm AT “Aloqabank” ning moliyaviy hisobotlari ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Aloqa bankning foyda hajmi yillar davomida o'sib kelgan. 2010 yilda bank foydasi 8090,4 mln.so'm bo'lgan bo'lsa, 2014 yilga kelib bank foydasi 26449,3 mln.so'mga yetgan bo'lib, 3,3 barobarga oshgan. Foyda hajmining ijobiy o'zgarishi bankning jami daromadlari o'sishi hisobiga bo'lgan. Bu natijalar berilgan kreditlar, depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'laning oshganligi evaziga erishilgan.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i - umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari – yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining to'lovchilari hisoblanadi.

Soliq solish ob'yekti faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining foydasi hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, imtiyozlar hamda soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.³¹

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 148-moddasiga "Kredit tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlari"ga quyidagilar kiradi:

1) kredit tashkilotining o'z nomidan va o'z hisobidan pul mablag'larini joylashtirishdan, kreditlar hamda zayomlar berishdan olinadigan foizlar, boshqa foizli daromadlar. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida berilgan kreditlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq foizlarni to'lash bo'yicha imtiyozli davr berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar kredit shartnomasiga ko'ra olish muddati yetib kelmagunicha soliq solinadigan daromad sifatida qaralmaydi;

2) mijozlarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochganlik va yuritganlik hamda ularning topshirig'iga binoan hisob-kitoblarni amalga

³¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y., - 148-m.

o'shirganlik uchun olingan haq, shu jumladan jo'natma, inkasso, akkreditiv va boshqa operatsiyalar, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan to'lov kartalarini hamda boshqa maxsus vositalarni rasmiylashtirganlik va xizmat ko'rsatganlik uchun, hisobvaraqlar bo'yicha ko'chirmalarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etganlik uchun va summalarni qidirganlik uchun vositachilik haqi hamda boshqa pul mukofotlari;

3) pul mablag'larini inkassatsiya qilishdan, veksellardan, to'lov va hisob-kitob hujjatlaridan hamda mijozlarga kassa xizmati ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

4) naqd pulli va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladigan valuta operatsiyalarini o'tkazishdan, shu jumladan chet el valutasini sotib olish yoki sotish, jumladan mijozning hisobidan va uning topshirig'i bo'yicha operatsiyalarda vositachilik va boshqa mukofotlar, valuta boyliklari bilan operatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

5) uchinchi shaxslar uchun pul shaklida ijro etilishini nazarda tutuvchi bank kafolatlari, majburiyatlari, kafilliklari berishga doir operatsiyalardan olinadigan pul shaklidagi mukofot;

6) hujjatlarni va qimmatliklarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar va seyflarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

7) pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, boshqa boyliklar va bank hujjatlarini yetkazib berganlik, tashiganlik uchun haq;

8) qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni tashiganlik va saqlab turganlik uchun haq;

9) forfeyting va faktoring operatsiyalarini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

10) kredit tashkilotlari tomonidan o'z professional faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.³²

Balansning valutaga oid moddalari qayta baholanganda olinadigan daromadlar, shuningdek chet el valutasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy

³² O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y, 127-128-m.

banki tomonidan belgilangan kursi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki olish sanasidan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'langan sanagacha bo'lgan davrda o'zgarishi munosabati bilan yuzaga kelgan ijobiy farq boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

O'stirmaslik maqomini olgan kredit bo'yicha hisoblangan foizlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvaraqlaridan chiqarib tashlanadi.

Tijorat bankining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlari haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegirib tashlanadi.

Soliq to'lovchining xarajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;

2) xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);

3) belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar (xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratmalar);

4) nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;

5) xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

6) umumiy ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash;

7) yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;

8) soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

9) jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan tijorat bankining xarajatlari;

10) dala ta'minoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avtotransportidan foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'langan to'lovlar;

11) pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar;

12) xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam, lekin xodim oila a'zosining vafoti munosabati bilan oila a'zolariga beriladigan moddiy yordamlar bundan mustasno;

13) mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yohud mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'ligining boshqacha shikastlanishi sababli xodimlarga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan to'lovlar;

14) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga badallar, homiylik va xayriya yordamlari tarzidagi mablag'lar;

15) ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

16) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni, shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar);

17) atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovlari;

18) kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kreditlar bo'yicha foizlar;

19) loyihalardagi va qurilish-montj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'yekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hisobiga o'rnini qoplash mumkin bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

20) sud chiqimlari;

20) aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summalarining o'rnini qoplash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar;

21) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulkining chiqib ketishidan ko'rilgan zararlar;

22) xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagi sanksiyalar;

23) investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar;

24) ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskuna uchun to'lanadigan haq;

25) tijorat banklari faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar.³³

Soliq Kodeksining 149-moddasida "Kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlarini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari" da kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga Soliq Kodeksining 142-146-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar kiradi:

³³ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y, 147 - m.

1) kredit resurslari uchun to'lovlar, pul mablag'lari va qimmatliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari. Ushbu xarajatlar haqida gap ketganda, ta'kidlash joizki, pul mablag'lari va qimmatliklarni tashish xarajatlari uchun hisob-kitob (to'lov) qachon amalga oshirilganligidan qat'iy nazar pul mablag'lari va qimmatliklarni tashish xizmatlari ko'rsatilgan davrda xarajatda aks ettirilishi zarur.

2) mijozlarning depozit hisobvaraqlari, shu jumladan jismoniy shaxslarning omonatlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlar. Bu o'rinda yuridik shaxslarning depozitlari bo'yicha foizlar to'lashda ayrim imtiyozli holatlar mavjud, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 iyul 2009 yildagi PQ-1166 sonli "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga muvofiq tijorat banklarining depozitlariga va qimmatli qog'ozlariga 1 yildan ortiq muddatga joylashtirishdan olinadigan foizli daromadlari bo'yicha yuridik shaxslar besh yil muddatga soliqqa tortishdan ozod etilgan. Ma'lumki, Soliq Kodeksining 156-moddasiga asosan foizlarga to'lov manbaida soliq solinadi. Demak, bir yildan ortiq muddatga yuridik shaxslar tomonidan depozitga joylashtirilgan mablag'lari yoki bir yildan ortiq muddatga chiqarilgan qimmatli qog'ozlari bo'yicha olinadigan foizli daromadlar 2009 yilning ikkinchi yarim yilligidan boshlab, besh yilga foyda solig'idan ozod etilgan. Mazkur holatda bir yildan ortiq muddatga joylashtirilgan depozitlar yoki qimmatli qarz qog'ozlari bo'yicha to'lanadigan foizli daromadlar, qaysi davr uchun hisoblanganligidan qat'iy nazar, imtiyoz davri bo'lgan besh yil davomida to'lov manbaida, ya'ni tijorat banklarida soliqqa tortilmaydi.

3) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan normalar doirasida tavakkalchilik operatsiyalari bo'yicha zahiralariga ajratmalar.

Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 11 fevralda 632-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan

ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibi") muvofiq aktivlar yaxshi, standart (10%), substandart (25%), shubhali (50%) va umidsiz (100%) qarzlarni sifatida tasniflanadi. Tijorat banklarining soliq solinadigan foydasidan ular o'z filiallariga beradigan mol-mulk qiymati chegirib tashlanadi.³⁴

Foyda solig'i hisob-kitobi, foyda solig'i to'langunga qadar bo'lgan moliyaviy natijalar, 30908 "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" hisobvarag'idan 31203 "Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)" hisobvarag'iga (har oyda hisobdan chiqariladigan) hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasidagi ijobiy farq summasiga (O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarni buxgalteriya hisobi to'g'risida gi 17.12.04 yildagi 1434-sonli qo'lanmaga asosan) tuzatish (korrektirovka) qilinadi. Shuningdek, foyda solig'i to'langunga qadar bo'lgan moliyaviy natijalar davr xarajatlarida aks ettiriladigan 56714 "Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar" balans hisobvaraqlar bo'yicha summaga tuzatish (korrektirovka) qilinadi. Moliyaviy hisobotga ilova "Chegirilmaydigan xarajatlar" qatorida jami foyda solig'iga kiritiladigan xarajatlar aks ettiriladi. Chegirilmaydigan xarajatlar tarkibi va miqdori amaldagi qonunchilikka va ularga kiritilayotgan o'zgarishlarga (xarajatlar aks ettirilgan qatorlar soliq hisoboti shakllariga) muvofiq o'zgarishi mumkin. Joriy davrda soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydigan, lekin kelgusi davrda soliqqa tortish bazasidan chegiriladigan xarajatlar alohida ilovada ko'rsatiladi.

Foyda solig'i hisob-kitobida, soliq qonunchiligiga asosan soliq bo'yicha imtiyozlar aks ettiriladi. Soliq bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va boshqa amaldagi qonunchilikka hamda hisobot davriga hisobvaraqlardagi qoldiq va hisobvaraqlar tarixiga asosan qo'llaniladi.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y, 49-m.

AT “Aloqabank” tomonidan to’lanadigan foyda solig’i hisob-kitobi
(31.12.2014 holatiga) ³⁵

№	Ko’rsatkichlar	Summa, mln.so’m
1	Soliq to’lagunga qadar bo’lgan foyda	26449,3
2	Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq bazasiga qayta kiritiladigan xarajatlar)	6057,4
4	Olingan dividendlar	518,4
5	Soliqqa tortilishi lozim bo’lgan foyda (1satr + 2satr - 3satr)	31988,3
6	Soliqqa tortishdan ozod qilingan foyda	3557,8
7	Soliqqa tortiladigan foyda (5satr – 6 satr)	28430,5
8	Soliq tortiladigan foydadan kamaytirishlar	1486,3
9	Soliqqa tortiladigan baza (7satr – 8satr)	26944,2
10	Belgilangan soliq stavkasi, %	15
11	Tuzatilgan soliq stavkasi %	10,5
12	Hisoblangan foyda solig’i (9satr * 10,5%)	2829,1
13	Budjetga to’lanadigan foyda solig’i	2829,1

Tijorat banklari tomonidan to’lanadigan soliqlar ichida hisoblanishi jihatdan murakkab bo’lgan soliq turi bu foyda solig’i hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko’ra, bankning 2014 yilda soliq to’lagunga qadar foydasi 26449,3 mln.so’m bo’lgan. Bankning chegirilmaydigan xarajatlari 6057,4 mln.so’mni tashkil qilgan, bank tomonidan olingan dividendlar 518,4 mln.so’m bo’lib, soliqqa tortiladigan foyda 3557,8 mln.so’mni tashkil qilgan. Foyda solig’i bo’yicha imtiyozlar mavjud bo’lib bu imtiyozlar asosida foyda solig’i 3557,8 mln.so’mga ozod qilingan, natijada soliqqa tortiladigan foyda summasi 28430,5 mln.so’mga yetgan. Soliq Kodeksiga asosan, soliqqa solinadigan

³⁵ Jadval AT “Aloqabank” ning 2015 yil moliyaviy hisoboti ma’lumoti asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan.

foydadan ma'lum kamaytirishlar mavjud bo'lib, 1486,3 mln.so'mni, foyda solig'i bazasi 26944,2 mln.so'mni tashkil qilgan. Imtiyoz bo'yicha bank tomonidan hisoblangan soliq 2829,1 mln.so'mni tashkil qilgan. Ushbu imtiyozni olish uchun tijorat banklari davlat soliq xizmati idoralariga "Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi hisob-kitobi – ma'lumotnoma" ni taqdim qilishlari zarur (4-jadval):

4-jadval

Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi hisob-kitobi ³⁶

Ko'rsatkich nomi	Satr kodi	Summa (mln. so'm)
<i>I.Uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalash, jami (020,030,040-satrlar yig'indisi), shu jumladan:</i>	010	196290,6
Uch yildan kam bo'lmagan muddatda berilgan investitsiya kreditlari (brutto) (14700-15500,15701 ning tegishli hisobvaraqlari, 14900 mustasno)	020	175697,0
Uch yildan kam bo'lmagan muddatga ko'rsatilgan lizing xizmatlari (brutto) (15600,15705 ning tegishli hisobvaraqlari)	030	7218,7
Banklar tomonidan olingan ishlab chiqarish korxonalari negizida tashkil etiladigan kompaniyalar aktivlariga yo'naltirilgan mablag'lar	040	13374,9
<i>II.Kredit portfeli, jami (060,070,080-satrlar yig'indisi), shu jumladan:</i>	050	220619,4
Berilgan kreditlar summasi (brutto) (11900-15500, 15700 hisobvaraqlar)	060	200025,7
Lizing xizmatlari (brutto) (15600 ning tegishli hisobvaraqlari)	070	7218,7
Banklar tomonidan olingan ishlab chiqarish korxonalari negizida tashkil etiladigan kompaniyalar aktivlariga yo'naltirilgan mablag'lar	080	13374,9
<i>III.Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalash ulushi (%da) ((010-satr / 050-satr) * 100%)</i>	090	89
<i>IV.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi. %</i>	100	15
<i>V.Tuzatilgan soliq stavkasi,%</i>	110	10,5

³⁶ Jadval AT "Aloqabank" ning 2014 yil uchun yillik moliyaviy hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan.

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalash jamisi 196290,6 mln.so'm bo'lib, kredit portfeli jamisi 220619,4 mln.so'mni tashkil qilgan. Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalash ulushi 89% ni tashkil etgan bo'lib, ya'ni 50% dan yuqori. Demak, bank foyda solig'ini amaldagi stavkaning 70% miqdorida soliq to'laydi ya'ni tuzatilgan soliq stavkasi 10,5%. Bu imtiyoz 2015 yilning 1 yanvariga qadar amal qilib kelgan. Lekin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ – 2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq ushbu imtiyozning amal qilish muddati 2020 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi. Demak, banklar yana ushbu imtiyozdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunday imtiyozning mavjudligi bank uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

Ushbu soliqni to'lashda banklar kelgusi chorakning boshida chorak davomida olinadigan foyda miqdorini oylar kesimida bashorat qilib, davlat soliq inspeksiyalariga ma'lumot taqdim etadi. Bashorat qilingan soliq summasi oyning boshida davlat budjetining tegishli hisobvarag'iga o'tkaziladi. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 19931 – “Muddati uzaytirilgan soliqlar”

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari”

Chorakning oylari davomida to'langan foyda soliq summasi har chorakning oxirida bankning tegishli xarajatlar hisobvarag'iga olib boriladi va quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

- a) Agar chorak uchun bashorat qilingan foyda soliq summasi haqiqatga to'g'ri kelsa:

Debet 56902 – “Daromad solig'ini baholash”

Kredit 19931 – “Muddati uzaytirilgan soliqlar”

- b) Agar choraklik uchun oldindan to'langan foyda solig'i summasi bankning haqiqatdagi foyda solig'i summasidan kam bo'lsa, kam to'langan qismi bankning 22502 – “Hisoblangan daromad (foyda) soliqlari”

hisobvarag'iga o'tkaziladi va ushbu hisobdan davlat bujetiga o'tkazib beriladi, bunday holatda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Kam to'langan summaga:

Debet 56902 – “Daromad solig'i hisoblash”

Kredit 22502 – “Hisoblangan daromad (foyda) soliqlari”

Kam to'langan summa davlat budjeti hisobvarag'iga o'tkazilganda:

Debet 22502 - “Hisoblangan daromad (foyda) soliqlari”

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari”

Banklarda foyda solig'i soliq bazasi bankning hisobvaraqlar rejasining 4-bo'limi daromadlar hisobvaraqlaridagi qoldiqlar asosida aniqlanadi. Soliq bazasini hisoblashda 4-bo'limdagi hisobvaraqlardagi daromad summasida Soliq Kodeksida belgilangan imtiyozlari mavjud bo'lgan daromad turlari va boshqa chegirmalar ayirib tashlanadi.³⁷

5-jadval

AT “Aloqabank” tomonidan to'langan foyda solig'i dinamikasi

(mln. so'mda)³⁸

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Soliq to'langunga qadar qolgan foyda	8090,4	11429,5	16721,8	20745,0	26449,3
Foyda solig'i	564,8	177,0	800,3	1352,5	2829,1
Foyda solig'i chegirilgandan keyingi sof foyda	7525,6	11552,6	15921,4	19392,5	23620,3
Obodonlashtirish va infrastruktura solig'i	518,6	1045,6	1221,4	1622,5	1550,3
Bank ixtiyorida qolgan sof foyda	7007,0	10207,0	14700,0	17770,0	22070,0

³⁷ Omonov A., Qoraliyev T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent, “Iqtisod - Moliya”, 2014. 176 -b

³⁸ Jadval AT “Aloqabank” ning 2010, 2011, 2012, 2013, 2014 yil uchun yillik moliyaviy hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda banklar tomonidan to'lanayotgan foyda solig'i o'sish tendensiyasiga ega. Bu esa banklar daromadining ham shunga mos ravishda o'sib borayotganidan dalolat beradi. Lekin foyda solig'ining ko'proq to'lanishiga beriladigan imtiyozlarning kamayib borganligi ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, 2010 yilda bankning soliq to'langunga qadar foydasi 8090,4mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 26449,3 mln.so'mni tashkil etgan, ya'ni deyarli 4 barobarga o'sgan. Buning natijasida to'langan foyda solig'i summasi ham shunga mos ravishda o'sib borgan, 2010 yilda foyda solig'i summasi 564,8 mln.so'm bo'lib, 2014 yilga kelib 2829,1 mln.so'mni tashkil etmoqda. 2013 yildan boshlab foyda solig'i hamda obodonlashtirish va infrastrukturani rivojlantirish solig'ini hisoblash bir tizimga keltirilgan. Bankning obodonlashtirish va infrastrukturani rivojlantirish solig'i summasi 2014 yilda 1550,3 mln.so'mni tashkil etgan. Bu ikkala jami soliqlar chegirilgandan keyin bank ixtiyorida qoladigan sof foyda miqdorini tahlil qiladigan bo'lsak, yillar davomida bankning sof foydasi o'sish tendensiyasiga ega. 2010 yildan to 2014 yilga qadar bankning sof foydasi 3 barobar o'sgan. Bunga berilgan imtiyozlar ham ta'sir qilgan. Lekin banklar foydasidan chegiriladigan imtiyozlarning ko'pi 2015 yilga kelib bekor bo'lgan. Imtiyozlarning yangi usullari qo'llanilishi bank sof foydasi miqdorining oshishiga olib keladi. Bunday holatda tijorat banklariga soliq imtiyozlarini qo'llash ijobiy natija beradi.

Banklar xodimlarning ish haqi, mukofot va boshqa ko'rinishdagi daromadlaridan shkala asosida daromad solig'i to'laydilar. Soliq solinadigan daromadlar guruhlar bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomida o'zgarishiga qaramasdan qayta ko'rib chiqilmaydi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi.

Bank xodimlari ish haqidan daromad solig'i va boshqa ajratmalarni buxgalteriya yozuvlarida amalga oshirish tartibi quyidagicha:

Debet 56102 – “Ish haqi”

Kredit 29803 – “Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar”

Kredit 22506 – “To'lash uchun ushlab qolingani mablag'lar”

Kredit 22510 – “Nafaqa fondi (pensiya) bilan hisob-kitoblar”

Kredit 22512 – “Bandlik va boshqa fondlar bilan hisob-kitoblar”

Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan iborat bo'lib, u bo'yicha quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Debet 56114 – “Ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar”

Kredit 22510 – “Nafaqa fondi (pensiya) bilan hisob-kitoblar”

Bank xodimining ish haqi bo'yicha hisoblangan soliq to'lovlari va yagona ijtimoiy to'lov summalari belgilangan tartibda to'lanadi va ular bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari beriladi:

a) Bank xodimiga ish haqi to'landi.

Debet 29803 – “Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar”

Kredit 10101 – “Aylanma kassadagi naqd pullar”

Kredit 29896 – “Boshqa majburiyatlar (plastik kartaga)”

b) Bank xodimining ish haqidan hisoblangan daromad solig'i va fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan to'lovlar to'lab berildi.

Debet 22506 – “To'lash uchun ushlab qolingani mablag'lar”

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari”

Kredit 22628 – “Fuqarolarning shaxsiy jamg'arma pensiya hisobvarag'idagi mablag'lar”

c) Ish haqi hisobidan pensiya fondiga hisoblangan summa va yagona ijtimoiy to'lov summasi to'lab berildi.

Debet 22510 – “Nafaqa fondi bilan hisob-kitoblar”

Kredit 20205 – “Budjetdan tashqari fondlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari”

d) Bandlik va boshqa fondlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha hisoblangan summa to'lab berildi.

Debet 22512 - “Bandlik va boshqa fondlar bilan hisob-kitoblar”

Kredit 20296 - “Boshqa tashkilotlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari”

Tijorat banklari ushbu soliqlar bo'yicha davlat soliq inspeksiyalariga har chorakda hisobot beradi.

6-jadval

Jismoniyshaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari ³⁹

№	Soliq turi	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
		Eng kam ish haqining			
1	Jismoniy shaxslar daromadi-dan olinadigan soliq	5 baravarigacha 9%, 5-10 baravarigacha 16%, 10 baravaridan yuqori 22%	5 baravarigacha 8%, 5-10 baravarigacha 16%, 10 baravaridan yuqori 22%	5 baravarigacha 7.5%, 5-10 baravarigacha 16%, 10 baravaridan yuqori 22%	1 baravarigacha 0 %, 2-5 baravarigacha 8.5%, 5-10 baravarigacha 17%, 10 baravaridan yuqori 23%

Mustaqillikning dastlabki yillarida 5 ta shkala asosida daromadni soliqqa tortish amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, 4ta shkala asosida soliqqa tortilmoqda. 2015 yilda bu shkala yana bittaga ko'paydi, ya'ni eng kam ish haqining 1 baravarigacha 0%, eng kam ish haqining 2 baravaridan 5 baravarigacha 8,5%, eng kam ish haqining 5 baravaridan 10 baravarigacha 17%, eng kam ish haqining 10 baravaridan yuqori bo'lsa 23 % miqdorda soliq to'lanadi.

Jismoniy shaxslarning ish haqi ko'rinishdagi daromadlarini soliqqa tortishning pasaytirilishi aholi bandligini rag'batlantirish bilan birga ishchi kuchi

³⁹ Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

taklifining o'sishiga ham xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar uchun soliqlarning pasaytirilishi ular daromadlarining ortishiga, qolaversa, o'z jamg'armasining paydo bo'lishiga, natijada mazkur toifadagi fuqarolarning shaxsiy investitsion imkoniyati o'sishiga sabab bo'ladi. Soliq stavkalarining pasaytirilishi iqtisodiy faollikka ta'sir etuvchi omillarni sezilarli darajada rag'batlantirishi tufayli ma'lum vaqt o'tishi bilan soliqqa tortish bazasining kengayishi evaziga soliq stavkasi pasaytirilishi natijasida vujudga kelgan budjet daromadlaridagi yo'qotishlarning o'rmini qoplash imkoniyatini keltirib chiqaradi.

Soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan tijorat banklari - qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 197-228 moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ - 2270 sonli qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Soliq Kodeksining 209-moddasida soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar belgilangan bo'lib, bunday xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish;

2) depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;

3) to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar;

4) milliy valuta va chet el valutasini bilan bog'liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno;

5) yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar depo-hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish;

6) qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni o'tkazish hamda qimmatli qog'ozlar reestrini yuritish bo'yicha operatsiyalar, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo'yicha xizmatlar bundan mustasno;

7) qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish;

8) kliring operatsiyalari;

9) akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

10) pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar;

11) chet el valutasini bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;

12) kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);

13) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

14) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

15) lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);

16) jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti;

17) mijozlarning hisobraqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar.⁴⁰

Soliq solish ob'yekti soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import hisoblanadi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan baza, tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O'zbekiston

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y, 209-m.

Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'ining, bojxona bojlarining summolari kiradi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan taqdim etilgan ishlar, xizmatlar, agar ularning realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa, ularga qo'shilgan qiymat solig'i solinishi kerak bo'lsa, ishlar, xizmatlarni oluvchi O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchisining soliq solinadigan oboroti hisoblanadi. Ishlar, xizmatlarni oluvchida soliq solinadigan baza, O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad bo'yicha to'lov manbaida ushlab qolinishi lozim bo'lgan soliq summasi chegirib tashlanmagan holda belgilanadi. Budgetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi belgilangan stavka va soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.⁴¹

7-jadval

AT "Aloqabank" tomonidan to'langan QQS hisob-kitobi⁴²

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Soliqqa tortiladigan aylanma, mln.so'm	840,2	2889,9	1535,8	1155,2	1868,5
2	Soliq stavkasi, %	20	20	20	20	20
3	Hisoblangan soliq, mln.so'm	168,1	577,9	307,2	231,1	373,7
4	Budgetga to'langan soliq, mln.so'm	168,1	577,9	307,2	231,1	373,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bank tomonidan to'langan qo'shilgan qiymat solig'i o'sish tendensiyasiga ega. 2010 yilda qo'shilgan qiymat solig'iga tortilgan aylanma 840,2 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2011

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y, 206-207-m.

⁴² Jadval AT "Aloqa bank"ning 2010, 2011, 2012, 2013, 2014 yillar uchun yillik moliyaviy hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan.


yilda 2889,9 mln.so'mni, 2012 yilda esa 1535,8 mln.so'mni, 2013 yilda 1155,2 mln.so'mni, 2014 yilda 1868,5 mln.so'mni tashkil etmoqda. 2013 yilga kelib soliqqa tortiladigan aylanma kamaygan. Bilamizki, tijorat banklarining asosiy operatsiyalari qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan bazaga kiritilmaydi. Banklarning soliqqa tortiladigan aylanmasi jami aylanmada kam salmoqqa ega. Lekin shunday bo'lsada, so'nggi yillarda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan aylanmasi o'sib bormoqda. Bu bank xizmatlarining sferasi kengayib borayotganidan darak beradi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 221-moddasiga asoslangan holda hisobga olinadigan summa qo'shilgan qiymat solig'ini mutanosib usulda aniqlash yo'li bilan belgilanadi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning tanlangan usuli kalendar yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas. Mutanosib usul qo'llanilganda hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq solinadigan oborotning umumiy oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanishi belgilanadi.⁴³

Ushbu soliq stavkasi 20 foizdan iborat. Tijorat banklari "Boshqa daromadlar" hisobvaraqlarida aks ettirilgan daromadlar hisobidan, xususan "Paynet" xizmati bo'yicha olingan daromadlar va qonunchilikda belgilangan boshqa daromadlar to'laydi.

Bugungi kunda bank tizimida moliyaviy xizmat turlarining keskin oshib borishi va yangi moliyaviy xizmatlar joriy qilinayotganligini hisobga olib, bu masalalarni yechishda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 29 mayda 2460-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy banki Boshqaruvi va Davlat soliq qo'mitasining 2013 yil 29 apreldagi 38, 8/1, 2013-15-sonli qaroriga ilova "Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlarga taalluqli operatsiyalar ro'yxati" asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y, 221-m.



12-rasm. AT “Aloqabank” tomonidan to’lanadigan qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilingan daromadlar dinamikasi. ⁴⁴

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan ma’lumki, bank tomonidan to’lanadigan qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilingan xizmatlardan olingan daromadlari yillar davomida o’sib kelmoqda. 2010 yilda qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilingan daromadlari 44111,9 mln.so’m bo’lib, 2011 yilda oldingi yilga nisbatan 1,5 barobarga, 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 37194,9 mln so’mga, 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 29932,5 mln.so’mga yoki 1,3 barobarga oshgan. 2014 yilda 2010 yilga qaraganda deyarli 4 barobarga oshganligini ko’rishimiz mumkin. Bunday imkoniyat bank tomonidan olinadigan daromadlar salmog’ining oshishi va bank faoliyatida amalga oshiriladigan operatsiyalar ko’lamini kengaytirish, bank xizmat turlarini ko’paytirish imkonini beradi.

Qo’shilgan qiymat solig’i to’lanadigan operatsiyalar bo’yicha har oyning yakuni bo’yicha to’lov miqdori aniqlanib quyidagi buxgalteriyasi provodkasi asosida to’lov amalga oshiriladi:

Masalan, bank asosiy vositani (yuk mashinasi) mijozga 120 kunga ijaraga berish hisobidan 500 ming so’m daromad oldi. Olingan daromaddan quyidagi tartibda QQS hisoblanadi va buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

- a) Mijoz yuk mashinasidan foydalangani uchun ijara to’lovini bankka o’tkazadi:

⁴⁴ Rasm AT “Aloqa bank ”ning yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Debet 20208 – “Mijozning muddatli depozit hisobvarag’i” 500000,0
Kredit 29802 – “Tovar-moddiy qiymatliklar va ko’rsatiladigan xizmatlar uchun to’lovlar”

b) QQS summasi ($8333.33 = 500000,0 / 120 * 20$) hisoblanadi:

Debet 29802 – “Tovar-moddiy qiymatliklar va ko’rsatiladigan xizmatlar uchun to’lovlar” 83333.33

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag’lari”

c) Mijoz yuk mashinasidan foydalangani uchun ijara to’lovidan QQS summasi ($8333.33 = 500000,0 / 120 * 20$) chiqarib tashlangandan so’ng bank qolgan summa bank daromadiga olinadi:

Debet 29802 – “Tovar-moddiy qiymatliklar va ko’rsatiladigan xizmatlar uchun to’lovlar” 416666.67

Kredit 45901 – “Bank asosiy vositalarining ijarasidan olingan daromadlar”

Bank asosiy vositalarni ijaraga bergan to’lov hisobidan olgan daromadidan QQS ni to’lagani kabi, asosiy vositalar yoki kam baholi tez eskiruvchi buyumlar sotishdan olgan daromatlari hisobidan ham yuqoridagi tartibda QQS hisoblanadi va tegishli buxgalteriya yozuvlari asosida to’lovlar amalga oshiriladi.⁴⁵

Tijorat banklari – suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to’lovchilar, O’zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste’molini amalga oshiruvchi shaxslardir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda “O’zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to’g’risida” gi PQ - 2270 sonli qaroriga asosan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi, yer usti manbalaridan olinganda $1m^3$ uchun 61,9 so’m, yer osti manbalaridan olinganda $1m^3$ uchun 78,6 so’m hisoblanadi.

⁴⁵ Omonov A., Qoraliyev T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent, ”Iqtisod - Moliya”, 2014. 183, 185 - b

Filial tomonidan foydalaniladigan suv resurslari markaziy suv tarmog'idan olinsa, bosh hisobchilar yil boshida joylardagi Davlat soliq inspeksiyasiga xat bilan murojaat qilishlari va yer usti yoki yer osti manbalarining koeffitsientini aniqlashlari zarur.⁴⁶

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob'yektidir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari kiradi. Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.⁴⁷

Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan baza hisoblanadi.

8-jadval

AT "Aloqabank" tomonidan to'langan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi (01.01.2015 yil holatiga, ming so'mda)⁴⁸

№	Ko'rsatkichlar	Yer usti suv manbalari, 75%	Yer osti suv manbalari, 25%
1	Soliq solinadigan baza	66,9	17,6
2	1 kub metr uchun belgilangan soliq stavkasi, so'm	51,6	65,5
3	To'langan soliq summasi	3452,3	1150,6

AT "Aloqa bank" 2014 yilda jami 4603 ming so'm miqdorida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lagan. Soliq har bir foydalangan 1 kub metr uchun indeksatsiya qilingan miqdorlarda to'lanadi. Yer usti suv manbalaridan foydalangan 1 kub metr uchun 51,6 so'mdan 3452,3 ming so'm, yer osti suv manbalari uchun 65,5 so'mdan 1150,6 ming so'm to'lagan. Agar soliq summasi kamaytirilsa, haqiqiy summadan kelib chiqib penya hisoblanadi.

⁴⁶ AT "Aloqa bank" ning buxgalteriya hisobi siyosati. - Toshkent, 2015. – 95 b.

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y, 258 – m.

⁴⁸ Jadval AT "Aloqabank" ning yillik moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.⁴⁹

Ma'lumotnomaga asosan hisoblangan avans summasi oldindan to'lanadi va unga quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 19931 – “Muddati uzaytirilgan soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)”

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari”

Yer usti va yer osti suv resurslaridan foydalanganligi uchun foiz nisbati olinadi. Bu nisbatlar bo'yicha oldindan amalga oshirilgan to'lov summasini quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali yopamiz:

Debet 56714 – “Soliq (daromad solig'idan tashqari) va lisenziyalar”

Kredit 19931 – “Muddati uzaytirilgan soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)”

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun oldindan to'langan soliq summasi haqiqatda to'langan summadan kam bo'lsa, kam to'langan qismi bankning 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar” hisobvarag'iga o'tkaziladi va ushbu hisobdan davlat budjetiga o'tkazib beriladi, bunday holatda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Kam to'langan summaga:

Debet 56714 – “Soliq (daromad solig'idan tashqari) va lisenziyalar”

Kredit 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar”

Kam to'langan summa davlat budjeti hisobvarag'iga o'tkazilganda:

Debet 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar”

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari”⁵⁰

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y, 264 –m.

⁵⁰ Omonov A., Qoraliyev T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent, “Iqtisod - Moliya”, 2014. 181, 182 - b


**Tijorat banklari tomonidan budjetga umumdavlat soliqlarini to'lash
muddatlari**⁵¹

Soliq turlari	So- liq dav- ri	DSI ga ma'lumotnoma taqdim etish muddati	Joriy to'lov to'lash muddati	DSI ga hisob kitob topshirish muddati	To'lash muddati
Yuri- dik shaxs- lardan olina- di- gan foyda solig'i	Cho- rak	Joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha DSI ga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib soliq summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar.	Joriy to'lovlar har oyning 10-kundan kechiktirmay soliq ma'lumotnoma sida hisoblab chiqilgan yil choragi bo'yicha olinadigan foyda solig'i summasining 1/3 miqdorida to'lanadi.	Hisob-kitob DSI ga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kundan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.
Qo'- shil- gan qiy- mat solig'i	Cho- rak			Har chorakda keyingi oyning 25-kundan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.	Har oyda keyingi keyingi oyning 25-kundan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay to'lanadi.
Suv resurs lari- dan foyda- lan- ganlik uchun soliq	Ka- len- dar yil	Joriy soliq davrining 25 yanvarigacha	Har oyning 25-kundan kechiktirmay soliq yillik summasi miqdorida	Yilda bir marta yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda (25 fevralgacha)	Yilning har choragida uchinchi oyning 25-kundan kechiktirmay yillik summaning 1/4 qismi miqdorida

⁵¹ Jadval O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2.2. Banklar tomonidan to'lanadigan mahalliy soliqlar va ularning hisobi

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari bilan belgilangan, ular tomonidan o'z vakolatiga muvofiq ravishda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ishlatiladigan soliqlar mahalliy soliqlar hisoblanadi. Mahalliy soliqlarni joriy etish sabablari sifatida, birinchi navbatda ularning fiskalligini e'tirof etish lozim. Demak, mahalliy soliqlar va yig'img'lar orqali davlat mahalliy hokimiyatiga moliyaviy resurslar jalb etiladi va ushbu resurslardan mahalliy ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladi.⁵²



13-rasm. AT "Aloqabank" tomonidan to'lanadigan umumdavlat va mahalliy soliqlarning taqsimoti, mln.so'mda (31.12.2014 holatiga).⁵³

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari asosida ma'lumki, AT "Aloqa bank" tomonidan to'langan umumdavlat va mahalliy soliqlar tarkibida foyda solig'ining salmog'i yuqori bo'lib, jami soliqlarning 41foizini tashkil etmoqda, ya'ni 2014 yilda bank tomonidan to'langan foyda solig'i 2829,1 mln.so'mni tashkil etgan. Bunga sabab foyda solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarning kamligi hisoblanadi. Bank tomonidan to'langan mol-mulk solig'i foyda solig'iga

⁵² Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T: Iqtisod va moliya. 2007 y., - 82 b.

⁵³ Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

nisbatan kamroq miqdorga ega, ya'ni 1956,4 mln.so'm (28%). 2014 yilda bank tomonidan to'langan obodonlashtirish va infrastrukturani rivojlantirish solig'i 1550,3 mln.so'm (22%) ni, qo'shilgan qiymat solig'i 436,0 mln.so'm (6%) ni, yer solig'i 158,3 mln.so'm (2%) ni, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 4,6 mln.so'm (1%) ni tashkil etgan.

Tijorat banklari mol-mulk solig'ining ham to'lovchisi hisoblanadi. Mol-mulk solig'ini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan tijorat banklari yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'laydilar.

Quyidagi mol-mulk soliq solish ob'yekti hisoblanadi:

1) asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;

2) tugallanmagan qurilish ob'yektlari. Tugallanmagan qurilish ob'yektlari jumlasiga muayyan qurilish ob'yektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, qurilish boshlanganidan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'yektlar kiradi;

3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruktsiya yoki modernizatsiya qilinayotgan ob'yektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi.⁵⁴

Soliq solinadigan baza quyidagilar hisoblanadi:

- asosiy vositalar bo'yicha - asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y., - 266-m.

foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

- belgilangan muddatda tugallanmagan qurilish ob'yektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha - tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

Soliq solish ob'yektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'yektlarining qoldiq qiymatlarini qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga kamaytiriladi:

- 1) uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha ob'yektlari;
- 2) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'yektlarining;
- 3) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'yektlarning. Ob'yektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'yektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;
- 4) lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;
- 5) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda o'z faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'yektlarning;
- 7) ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlarning, besh yillik muddatga. Yangi texnologik jihozlar olingan paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki bepul berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi mol-mulk solig'ini to'lash majburiyatlari imtiyoz qo'llaniladigan butun davr uchun tiklangan holda, bekor qilinadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi –tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.⁵⁵

Mol-mulkni o'rtacha yillik qoldiq qiymatini hisoblashda, soliq solish ob'yektiga 16505-16561, 16700 hisobvaraqlardagi qoldiqlar, shuningdek, (16561) hisovaraqdagi normativ muddatida o'rnatilmagan (bir yil muddatdan ortiq muddatda omborda turgan) uskunalar va (16505) hisobvaraqdagi belgilangan muddatda (24 oy mobaynida) ishga tushirilmagan qurilish ob'ektlarini kiritilishiga alohida e'tibor berilishi kerak.

Bankning mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining XI-bo'lim 269-moddasi asosida qo'llaniladi. 2014 yil 1 yanvaridan boshlab 269-moddaning 16-bandiga "ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalar" so'zlari kiritildi. Ya'ni, ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalar qiymati soliq solinadigan mulkdan ozod etilganiga e'tibor qaratish kerak.

31.01.14 yil mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati + har oyning oxirgi kuniga o'rtacha qoldiq qiymati +31.12.14 yil holatiga mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati /12 oy. Undan so'ng olingan natija mol-mulk solig'i stavkasi (4.0%) ga ko'paytiriladi.

2014 yildan mol-mulk solig'ining soliq solish bazasi foydalanish muddati 10 yildan oshmaydigan asbob-uskunalar qiymatiga kamaytirish belgilangan. Mol-mulk solig'i hisob kitoblarini tuzishda bunga alohida ahamiyat berilishi kerak.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y., - 271-m.

AT “Aloqabank” tomonidan to’lanadigan mol-mulk solig’i hisob-kitobi
(mln.so’mda) ⁵⁶

№	Ko’rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Asosiy vositalar, shu bn birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo’yicha olingan asosiy vositalarning va nomoddiy aktivlarning hisoblangan o’rtacha yillik qoldiq qiymati	23308,5	43754,1	48632,1
2	Soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi	2435,0	2851,0	136,3
3	Soliq solinadigan baza	20873,5	40903,1	48485,8
4	Soliq stavkasi, %da	3,5	3,5	4,0
5	<i>Soliq summasi</i>	730,6	1431,6	1939,8
6	Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob’yektining o’rtacha yillik qiymati	18400,6	3292,0	253,2
7	Soliq stavkasi, %da	3,5	3,5	4,0
8	<i>Soliq summasi</i>	644,0	115,2	10,1
9	Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning taxmin qilinayotgan o’rtacha yillik qiymati	1356,8	287,9	80,2
10	Soliq stavkasi, %da	7,0	7,0	8,0
11	<i>Soliq summasi</i>	95,0	20,2	6,4
12	<i>Budjetga to’lanadigan soliq summasi</i>	1469,6	1567,0	1956,4

Yuqoriagi jadval ma’lumotlari asosida bank tomonidan to’langan mol-mulk solig’i bo’yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin: to’langan soliq summasi yillar kesimida o’sib kelgan. Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo’yicha olingan asosiy vositalarning va nomoddiy aktivlarning hisoblangan o’rtacha yillik qoldiq qiymati 2014 yilda 48632,1

⁵⁶ Jadval AT “Aloqabank” ning yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

mln.so'm bo'lib, imtiyozlar natijasida soliq solinadigan baza 136,3 mln.so'mga kamaygan va natijada soliq solinadigan baza 48485,8 so'mga teng bo'lgan. Soliq solinadigan bazaning kamayishini oldingi yillar bilan taqqoslaganda 2014 yilda kamayganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni 2012 yilda soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi 2435,0 mln.so'mni, 2013 yilda 2851,0 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2014 yilga kelib oldingi yillarga nisbatan 2714,7 so'mga kam imtiyozlar qo'llanilgan. Natijada bu 2014 yilda to'lanadigan soliq summasiga ta'sir qilib, bankning jami budjetga to'lagan soliq summasi 1956,4 mln.so'mni tashkil qilgan.

Umumbelgilangan tartibda soliqlarni hisoblash va to'lash hisob kitoblarini amalga oshirish singari, bank mol-mulklari hisob-kitobining ajralmas qismi hisoblanadi. Filial tomonidan ular ro'yxatdan o'tgan hududdagi Soliq organiga belgilangan muddatda hisob-kitoblar taqdim etiladi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha to'lovlar va soliqdan ozod qilinadigan summalar ro'yxati moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda belgilangan muddatda Bosh bankning buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga topshiriladi.

Banklar yilning barcha choraklari uchun avans hisobotini soliq organlariga taqdim etadi. Bank tomonidan oylik to'lanadigan mol-mulk solig'i hisoblanib 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar” hisobvarag'ida jamlanib boriladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Debet 56714 – “Soliq (daromad solig'idan tashqari) va lisenziyalar”

Kredit 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)”

Mol-mulk solig'i to'langanda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Debet 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)”

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari”

Tijorat banklari davlat budjetiga yer solig'i to'lovlarini amalga oshiradilar. Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

Yer solig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ - 2270 sonli qaroriga asosan hisoblab chiqiladi, soliq stavkasi 20-ilovada keltirilgan miqdorlarda hisoblanadi.

Bank uchun soliq solish ob'yekti bino va inshootlarni sotib olishda yer uchastkasidan foydalanish va unga egalik qilish huquqining o'tishi, shuningdek, yangi bino va inshootlar qurish uchun yer uchastkasi ajratilishi hisoblanadi.

Yer uchastkasidan foydalanish va unga egalik qilish huquqining bankka o'tishi, yer uchastkasini yer kadastrini yurituvchi organda ro'yxatdan o'tkazilishi bilan amalga oshiriladi. Kadastrda bank tomonidan egallangan yer maydoni, bino va inshootlarning o'lchami (maydoni) ko'rsatilgan rejasi aks ettiriladi. Kadastrda ko'rsatib o'tilgan yer maydoni hajmidan kelib chiqib, har yili hukumat tomonidan belgilanadigan stavka asosida yer solig'i hisoblanadi.

Binoga egalik qilish huquqi uchun hujjat "Pasport" va yer uchastkasiga egalik qilish huquqi uchun hujjat "Kadastr" hujjatlari balansdan tashqari 93609 (kontrhisob 96379) hisobvarag'ida 1 so'm qiymatida aks ettiriladi va har yili inventarizatsiyadan o'tkaziladi.

Egallangan yer uchastkasi chegaralari o'zgarganda yoki yangi qurilish amalga oshirilganda zudlik bilan tegishli davlat organdan ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Bank tomonidan Davlat organlari va Kadastr xizmati tomonidan ajratib berilgan yer maydoniga nisbatan ortiqcha yer maydonidan foydalanilgan taqdirda amaldagi stavkaga nisbatan 2,0 koeffitsent qo'llaniladi.

Filial balansiga garovdagi ko'chmas mulkni olishda va unga tegishli yer uchastkasini bank mulki sifatida rasmiylashtirishda soliqlarni hisoblanishiga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Banklar amaliyotda yer solig'ini davlat soliq inspeksiyalari tomonidan Toshkent shahri va viloyatlarda zonalar bo'yicha 1 kv.m.ga o'rnatilgan soliq stavka haqida taqdim etgan tartiblar asosida to'laydilar. Bank binosi joylashgan joy qaysi zonaga taalluqli ekanligi kadastr hujjatlari asosida aniqlanadi. Soliq baza aniq bo'lgandan keyin bank binolari joylashgan hududning maydoni hajmi aniqlanadi va belgilangan stavkalar asosida soliq summasi aniqlanadi. Aniqlangan yer solig'i summasi belgilangan tartib va muddatlarda davlat budjetining tegishli hisobvaraqlariga to'lab beriladi.

Hisoblangan yer solig'i bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 56714 – “Soliq (daromad solig'idan tashqari) va lisenziyalar”

Kredit 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)”.

Yer solig'i to'langanda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Debet 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)”

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari”⁵⁷

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 295-300 moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 197-228 moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida” gi PQ - 2270 sonli qarori asosida belgilangan stavkada amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan

⁵⁷ Omonov A., Qoraliyev T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent, ”Iqtisod - Moliya”, 2014. 181 - b

bazadir. Bunda soliq solinadigan baza olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar summasiga, qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun esa sof qo'shimcha foyda summasiga ham kamaytiriladi.

Ijtimoiy infratuzilma ob'yektlariga sog'liqni saqlash ob'yektlari, ta'lim ob'yektlari va bolalar dam olish oromgohlari kiradi.



14-rasm. AT “Aloqabank” tomonidan to'lanadigan obodonlashtirish va infrastrukturani rivojlantirish solig'i dinamikasi, mln.so'mda.⁵⁸

Rasm ma'lumotlaridan ma'lumki, banklarning har bir yil bo'yicha to'langan obodonlashtirish va infrastrukturani rivojlantirish solig'i o'sib borgan. 2010 yilda bank tomonidan to'langan soliq 518,6 mln.so'mni tashkil etgan. 2013 yilda 1622,5 mln.so'mga yetgan. 2014 yilda esa 1550,3 mln.so'm bo'lgan. Bunga 2014 yilda bank tomonidan to'lanadigan soliqqa beriladigan imtiyozlarning qo'llanilishi natijasida erishilgan.

Moliyaviy hisobotga, hisob-kitoblar ilova qilinadi. Foyda (daromad) solig'ini hisoblash bo'yicha soliq solish ob'yekti filialning barcha soliq va majburiy to'lovlari to'lab bo'lingandan so'ng qolgan (foyda solig'isiz) sof foydadan foyda solig'i chegirilgan holda hisobga olinadi.

⁵⁸ Rasm AT “Aloqabank” ning yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**Tijorat banklari tomonidan budjetga mahalliy soliqlarni to'lash
muddatlari⁵⁹**

Soliq turlari	So- liq dav- ri	DSI ga ma'lumotnoma taqdim etish muddati	Joriy to'lov to'lash muddati	DSI ga hisob kitob topshirish muddati	To'lash muddati
Mol- mulk solig'i	Ka- len- dar yil	Joriy soliq davri- ning 10 yanvari- gacha joriy soliq davri uchun ma'lumotnoma taqdim etadi.	Har oyning 10 kundan kechiktirmay.	Yilda bir marta yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda (25 fevralgacha)	Yillik summa- ning 1/12 qismi miqdorida har oyning 10-kuni- dan kechiktir- may, yil yakun- lari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan mud- datdan kechik- tirmay to'lanadi.
Obo- don- lashti- rish va infra- struk- turani rivoj- lanti- rish solig'i	Cho- rak	Joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha DSI ga joriy hisobot davri uchun tax- min qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va foyda- solig'ining belgi- langan stavkasidan kelib chiqib soliq summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar.	Joriy to'lov- lar har oyning 10-kundan ke- chiktirmay so- liq ma'lumot- nomasida hi- soblab chiqil- gan yil chora- gi bo'yicha olinadigan foyda solig'i summasining 1/3 miqdorida to'lanadi.	Hisob-kitob DSI ga ortib boruvchi yakun bilan yil- ning har chora- gida hisobot cho- ragidan keyingi oyning 25-kuni- dan kechiktir- may, yil yakunlari bo'yicha esa, yil- lik moliyaviy hiso- bot topshiriladi- gan muddatda taqdim etiladi.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.
Yer solig'i	Ka- len- dar yil			Yer solig'i soliq davrining yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi DSI ga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etladi.	Yer solig'ini to'- lash har chorak- da, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshirila- di. Yer solig'i to'lashni belgi- langan muddati- dan keyin maj- buriyat yuzaga kelganda 30 kun- dan kechiktir- may

⁵⁹ Jadval O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2.3. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan to'lanadigan majburiy to'lovlar, ularning hisobi

Mahalliy yig'imlar – bu O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qaroriga muvofiq belgilangan, yuridik va jismoniy shaxslarga ularga ko'rsatilgan madaniy-maishiy xizmatlar yoki davlat hokimiyatining mahalliy organlari nazorati ostida o'tkaziladigan boshqa tadbirlarning chiqimlari bilan bog'liq xarajatlarni qisman qoplash uchun undiriladigan to'lovlardir.

Respublikamiz budjet soliq qonunchiligiga muvofiq mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy davlat hokimiyati idoralarining daromad manbai hisoblanib, ular hozirga qadar davlatchilik munosabatlari rivojlanishiga mutanosib ravishda shakllanib, takomillashib keldi. Agarda respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq turli sohalarida amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan islohotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy hokimiyat idoralarining mavqeini oshirish borasidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.⁶⁰


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ - 2270 sonli qarori 3-bandi 23 ilovasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga 1,6% ajratma qilinadi.

Soliq solish ob'yekti tijorat bankining daromadi hisoblanadi.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari – respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ - 2270 sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga 1,4% ajratma qilinadi.

⁶⁰ Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T: Iqtisod va moliya. 2007 y., - 80 b.



15-rasm. AT “Aloqabank” daromadlar dinamikasi.⁶¹

Bank daromadlari - bank faoliyati natijasida tushgan umumiy tushum miqdori hisoblanadi. Daromadlar hisobiga bankning barcha operatsion xarajatlari qoplanadi, to'lanadigan dividendlar hajmini aniqlash, o'z mablag'larini oshirish, aktiv va passiv operatsiyalari rivojlanishi uchun bank foydasi shakllantiriladi. Biz tahlil qilayotgan AT "Aloqa bank" ning ham daromadlari yildan yilga o'sib bormoqda. 2010 yildan 2014 yilga qadar bankni daromadi deyarli 4 barobarga oshgan. Bu bank tomonidan samarali faoliyat olib borilayotganini bildiradi.

Bank soliqlarni o'z vaqtida va talab qilingan miqdorda to'lay olmasa, bankka nisbatan jarimalarni belgilash va ma'muriy jazolarni qo'llash kabi oqibatlarga ham olib kelishi mumkin, o'z navbatida bu albatta bankning imidjiga ham o'z zarbasini ko'rsatmay qolmaydi. Bank faoliyatida uning sof foydasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 132-moddasida ko'rsatilgan daromadlar majburiy ajratma ob'yekti hisoblanmaydi.

Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq (bankning asosiy faoliyati bilan bog'liq) bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

⁶¹ Rasm AT "Aloqabank" ning yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

- 1) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- 2) mol-mulknı operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- 3) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- 4) tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;
- 5) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zahiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- 6) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;
- 7) majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;
- 8) talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;
- 9) ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromadlar;
- 10) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;
- 11) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- 12) undirib olingan yoki qarzдор tomonidan tan olingan jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzдор tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar va penya;
- 13) kursdagi ijobiy farq;
- 14) dividendlar ;
- 15) royalti;
- 16) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa (bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalardan tashqari) daromadlar.⁶²

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan boshqa daromadlar qo'shilgan qiymat solig'i summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

⁶² O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2014 y, 132 – m.

Agar O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 132-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bankning professional faoliyatidan olingan bo'lsa, bu daromadlar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmani hisoblash ob'yektiga kiritiladi.

Sof tushum respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan bazasidir.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Tijorat banklari Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy to'lovlarni to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi Farmoniga muvofiq budjetdan tashqari ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi tashkil etildi. O'z faoliyatini amalga oshiruvchi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslar ushbu jamg'armaga majburiy ajratmalar to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirish uchun kelib tushadigan mablag'lar budjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahri Bosh boshqarmasining hisob-kitob kassa markazida ochiladigan maxsus hisobraqamda jamlanadi.

Tijorat banklarining daromadlari – majburiy ajratmalarga tortish ob'yekti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 132-moddasida ko'rsatilgan daromadlar majburiy ajratma ob'yekti hisoblanmaydi.

Majburiy ajratmalar stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jamg'armaga to'lanishi lozim bo'lgan majburiy ajratmalar summasi belgilangan majburiy ajratmalarga tortish ob'yekti va stavkasidan kelib chiqqan holda to'lovchilar tomonidan aniqlanadi.⁶³

Tijorat banklari ham yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchi yuridik shaxslardir. Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish ob'yektidir. Yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza Soliq Kodeksining 172-moddasiga muvofiq to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi:

- ✓ mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, ta'rif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblanga ish haqi;
- ✓ ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo'shimcha to'lovlar;
- ✓ rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;
- ✓ kompensatsiya to'lovlari;
- ✓ ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;
- ✓ yuridik shaxsning boshqaruv organi a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar.

Mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov summasi belgilangan tartibga muvofiq davlat maqsadli jamg'armalarga hamda O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi o'rtasida quyidagicha taqsimlanadi:

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga;
- bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga;
- O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga.⁶⁴

⁶³ AT "Aloqa bank" ning buxgalteriya hisobi siyosati. – Toshkent, 2015 yil.

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – T.: "Adolat", 2014 y, 172 – m.

**AT “Aloqabank” tomonidan to’lanadigan majburiy ajratmalar
dinamikasi (mln.so’mda) ⁶⁵**

№	Ko’rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Jami daromad	44928,1	66944,3	102785,1	132337,0	173408,5
2	Soliq Kodeksining 132-moddasiga asosan soliqqa tortilmaydigan daromadlar	1761,1	11106,7	11813,5	15364,2	7983,8
4	Soliqqa tortiladigan daromad	43167,0	55837,6	90971,6	116972,9	165424,7
5	Pensiya jamg’armasiga majburiy ajratma	647,5	893,4	1455,5	1871,6	2646,8
6	Respublika yo’l jamg’armasiga majburiy ajratmalar	647,5	781,7	1273,6	1637,6	2315,9
7	Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mlash va jihozlash jamg’armasiga majburiy ajratma	224,6	279,2	454,9	584,9	827,1
8	Yagona ijtimoiy to’lov	1534,0	2181,2	2911,1	3444,9	4872,9

Ushbu majburiy to’lovlar banklarning jami aniqlanadigan daromadidan to’lanadi. Jami daromaddan Soliq Kodeksining 132-moddasida keltirilgan daromadlar summasi chegirilgandan so’ng qolgan daromaddan majburiy

⁶⁵ Jadval AT “Aloqabank” ning yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

to'lovlar to'lanadi. Majburiy to'lovlar yillar bo'yicha o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Jumladan, pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma 2014 yilda 2646,8 mln.so'mni, yo'l jamg'armasiga to'lovlar 2010 yilda 647,5 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda bu ko'rsatkich 1668,4 mln.so'mga o'sgan, ya'ni 2315,9 mln.so'mni tashkil etgan. Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma, yagona ijtimoiy to'lov ham yillar kesimida o'sish tendensiyasiga ega.

13-jadval

Tijorat banklari tomonidan budjetga majburiy to'lovlarni to'lash muddatlari ⁶⁶

№	Soliq turlari	Soliq davri	DSI ga hisob kitob topshirish muddati	To'lash muddati
1	Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma	Yil choragi	Ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay	Har oyda keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay
2	Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma			
3	Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma			
4	Yagona ijtimoiy to'lov	Chorak	Yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi	Har oyda keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

⁶⁶ Jadval O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Majburiy ajratmalarning hisob-kitobi to'lovchilar tomonidan davlat soliq xizmati organlariga belgilangan tartibda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, o'sib boruvchi yakun bilan xar oyda taqdim etiladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, har bir yil bo'yicha majburiy to'lovlar stavkalari o'zgarmagan. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma 1.6%, ta'lim va tibbiyot muassalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga ajratma 0.5%, fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari 6.0% ni tashkil etadi.

Bankning birinchi chorakda daromad soliq bazasi 500.0 mln so'mni tashkil etdi, shuningdek bankning boshqa foizli (44900) va foizsiz (45900) daromadlari 50.0 mln so'm bo'lib, ajratmalar uchun soliq bazasi $450.0 = (500.0 - 50.0)$ mln so'm bo'ldi va quyidagi miqdorda ajratmalar hisoblandi:

Fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari summasi $27.0 = (450.0 * 6.00 / 100)$ mln so'm;

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma $7.2 = (450 * 1.6 / 100)$ mln so'm;

Budjetdan tashqari respublika yo'l jamg'armasiga ajratma $6.3 = (450 * 1.4 / 100)$ mln so'm;

Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga ajratma $2.25 = (450 * 0.5 / 100)$ mln so'm. Bankning birinchi chorakdagi jami ajratmalar 42.75 mln so'mni tashkil etdi, bunga quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

a) Hisoblangan ajratmalar summasiga qilingan xarajatlar bo'yicha:

Debet 56714 – “Soliq (daromad solig’idan tashqari) va lisenziyalar”

42750000.0

Kredit 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar ”

- b) Fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg’armasiga sug’urta badalari (27.0 mln so’m) va budjetdan tashqari pensiya jamg’armasiga majburiy ajratma (7.2 mln so’m) to’landi:

Debet 22504 - “Hisoblangan boshqa soliqlar ”

34200000.0

Kredit 20205 – “Budjetdan tashqari fondlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari”

- c) Budjetdan tashqari respublika yo’l jamg’armasiga ajratma (6.3 mln so’m) to’landi:

Debet 22504 - “Hisoblangan boshqa soliqlar ”

6300000.0

Kredit 20207 – “Respublika yo’l jamg’armasining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari”

- d) Ta’lim va tibbiyot mussasalarini rekonstruksiya qilish mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg’armasiga ajratma (2.25 mln so’m) to’landi:

Debet 22504 – “Hisoblangan boshqa soliqlar”

Kredit 20205 – “Budjetdan tashqari fondlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari”⁶⁷

Tijorat banklari ushbu soliqlar bo’yicha davlat soliq inspeksiyalariga har chorakda hisobot beradi.

Tijorat banklari faoliyati davomida mijozlaridan oladigan daromadi soliq solish manbasidan to’lanadigan soliq hisoblanadi. Banklar ijaraga olingan asosiy vositalarga to’laydigan to’lovlari (xarajatlar), shuningdek, boshqa banklardan olgan depozit mablag’lari bo’yicha qiladigan foiz to’lovlari (xarajatlari) hisobidan 10 foiz miqdorda ushbu soliqlarni to’laydi.

Masalan, bank shartnoma asosida mijozning binosida mini bank ochdi. Shartnomaga ko’ra oylik ijara to’lovi 500 ming so’mni tashkil etadi va to’lov oyning 5-sanasiga qadar to’lab beriladi. Bank ijara to’lovini to’lab berishdan

⁶⁷ Omonov A., Qoraliyev T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent, “Iqtisod-Moliya”, 2014 y. – 191 b.

oldin soliq solish manbasidan to'lanadigan soliqni aniqlaydi. Ushbu summa 50 ming so'm bo'lib, u quyidagicha hisoblanadi $50000.00 = (500000.0 * 0.10)$ va buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi.

- a) Mijozga ijara to'lovi summasidan soliq solish manbasidan to'lanadigan soliq $(500000.0 - 50000.0)$ chegirib tashlandi va vujudga kelgan summa ijara xarajati sifatida mijozga to'lab berildi.

Debet 19925 – “Oldindan to'langan xarajatlar” 450000.0

Kredit 20206 – “Jismoniy shaxslarning muddatsiz depozit hisobvarag'i”

- b) Davlat budjetiga to'lash uchun hisoblangan soliq solish manbasidan to'lanadigan soliq summasi transit hisobvarag'iga kirim qilinadi:

Debet 19925 – “Oldindan to'langan xarajatlar” 50000.0

Kredit 22506 – “To'lash uchun ushlab qolingani soliq”

- c) Hisoblangan soliq solish manbasidan to'lanadigan soliq summasi davlat budjetiga to'lab berildi:

Debet 22506 – “To'lash uchun ushlab qolingani soliq” 50000.0

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari”

- d) Bank tomonidan ijara to'lovi uchun to'langan xarajatlar, soliq summasi bilan birgalikda tegishli xarajatlar hisobvarag'iga olib boriladi:

Debet 56202 – “Ijara to'lovi”

Kredit 19925 – “Oldindan to'langan xarajatlar”

Banklar boshqa banklardan jalb qilgan muddatli depozitlari yoki kreditlari bo'yicha to'lanadigan xarajatlar bo'yicha ham xuddi shu tartibda soliq solish manbasidan to'lanadigan soliq summasini aniqlaydi va buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiradi. Faqat xarajatlar depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar hisoblangan 50600 yoki 54100 hisobvaraqlarida aks ettiriladi.⁶⁸

Agar yuqoridagi holatda soliq va majburiy to'lovlarni ortiqcha yoki kam to'langanligi aniqlanganda, foyda solig'ini hisoblashda, hisobot davridagi moliyaviy natijalar ortiqcha to'lov summasiga ko'paytiriladi yoki kam to'langan summaga kamaytiriladi.

⁶⁸ Omonov A., Qoraliyev T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent, “Iqtisod-Moliya”, 2014 y. – 187 b.

II bob bo'yicha xulosa

Tijorat banklarining yakuniy maqsadli faoliyati erishilgan foydasi hisoblanadi. Bank foydasi bank faoliyatida, shu jumladan soliqlarni to'lashda muhim ahamiyatga ega. Aloqa bankning foyda hajmi yillar davomida o'sib kelgan. 2010 yilda bank foydasi 8090,4 mln.so'm bo'lgan bo'lsa, 2014 yilga kelib bank foydasi 26449,3 mln.so'mga yetgan bo'lib, 3,3 barobarga oshgan.

Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar ichida hisoblanishi jihatdan murakkab bo'lgan soliq turi bu foyda solig'i hisoblanadi. Tahlil ma'lumotlarga ko'ra, bankning 2014 yilda soliq to'lagunga qadar foydasi 26449,3 mln.so'm bo'lgan. Bankning chegirilmaydigan xarajatlari 6057,4 mln.so'mni tashkil qilgan, bank tomonidan olingan dividendlar 518,4 mln.so'm bo'lib, soliqqa tortiladigan foyda 3557,8 mln.so'mni tashkil qilgan. Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar mavjud bo'lib bu imtiyozlar asosida foyda solig'i 3557,8 mln.so'mga ozod qilingan, natijada soliqqa tortiladigan foyda summasi 28430,5 mln.so'mga yetgan. Soliq Kodeksiga asosan, soliqqa solinadigan foydadan ma'lum kamaytirishlar mavjud bo'lib, 1486,3 mln.so'mni, foyda solig'i bazasi 26944,2 mln.so'mni tashkil qilgan. Imtiyoz bo'yicha bank tomonidan hisoblangan soliq 2829,1 mln.so'mni tashkil qilgan.

Bank tomonidan to'langan qo'shilgan qiymat solig'i o'sish tendensiyasiga ega. 2010 yilda qo'shilgan qiymat solig'iga tortilgan aylanma 840,2 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 2889,9 mln.so'mni, 2012 yilda esa 1535,8 mln.so'mni, 2013 yilda 1155,2 mln.so'mni, 2014 yilda 1868,5 mln.so'mni tashkil etmoqda. 2013 yilga kelib soliqqa tortiladigan aylanma kamaygan. Bilamizki, tijorat banklarining asosiy operatsiyalari qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan bazaga kiritilmaydi. Banklarning soliqqa tortiladigan aylanmasi jami aylanmada kam salmoqqa ega. Lekin shunday bo'lsada, so'nggi yillarda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan aylanmasi o'sib bormoqda. Bu bank xizmatlarining sferasi kengayib borayotganidan darak beradi.

Bank tomonidan to'langan mol-mulk solig'i bo'yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin: to'langan soliq summasi yillar kesimida o'sib kelgan. Asosiy

vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning va nomoddiy aktivlarning hisoblangan o'rtacha yillik qoldiq qiymati 2014 yilda 48632,1 mln.so'm bo'lib, imtiyozlar natijasida soliq solinadigan baza 136,3 mln.so'mga kamaygan va natijada soliq solinadigan baza 48485,8 so'mga teng bo'lgan. Soliq solinadigan bazaning kamayishini oldingi yillar bilan taqqoslaganda 2014 yilda kamayganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni 2012 yilda soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi 2435,0 mln.so'mni, 2013 yilda 2851,0 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2014 yilga kelib oldingi yillarga nisbatan 2714,7 so'mga kam imtiyozlar qo'llanilgan. Natijada bu 2014 yilda to'lanadigan soliq summasiga ta'sir qilib, bankning jami budjetga to'lagan soliq summasi 1956,4 mln.so'mni tashkil qilgan.

Banklarning har bir yil bo'yicha to'langan obodonlashtirish va infrastrukturani rivojlantirish solig'i o'sib borgan. 2010 yilda bank tomonidan to'langan soliq 518,6 mln.so'mni tashkil etgan. 2013 yilda 1622,5 mln.so'mga yetgan. 2014 yilda esa 1550,3 mln.so'm bo'lgan. Bunga 2014 yilda bank tomonidan to'lanadigan soliqqa beriladigan imtiyozlarning qo'llanilishi natijasida erishilgan.

Tijorat banklarining daromadlari – majburiy ajratmalarga tortish ob'yekti hisoblanadi. Daromadlar hisobiga bankning barcha operatsion xarajatlari qoplanadi, to'lanadigan dividendlar hajmini aniqlash, o'z mablag'larini oshirish, aktiv va passiv operatsiyalari rivojlanishi uchun bank foydasi shakllantiriladi. Biz tahlil qilayotgan AT "Aloqa bank" ning ham daromadlari yildan yilga o'sib bormoqda. 2010 yildan 2014 yilga qadar bankni daromadi deyarli 4 barobarga oshgan. Bu bank tomonidan samarali faoliyat olib borilayotganini bildiradi. Ushbu majburiy to'lovlar banklarning jami aniqlanadigan daromadidan to'lanadi. Jami daromaddan Soliq Kodeksining 132-moddasida keltirilgan daromadlar summasi chegirilgandan so'ng qolgan daromaddan majburiy to'lovlar to'lanadi. Majburiy to'lovlar yillar bo'yicha o'sish tendensiyasiga ega.

III BOB. TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR, UNI HAL QILISH YO'LLARI VA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Tijorat banklarini soliqqa tortish tizimidagi muammolar va uni hal qilish yo'llari

Soliq tizimi, bir tomondan, budjetning nisbatan barqaror bazasini shakllantirishni ta'minlaydi. Ma'lum darajada bu vazifani hal etish bevosita soliqlar orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, soliqlar tadbirkorlik tashabbusini qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishning investitsiya va xo'jalik faolligini oshirishini rag'batlantirishi kerak. Bevosita soliqlar ancha mukammal ishlangan moliyaviy mexanizm bo'lib, u rivojlangan bozor sharoitlariga mos keladi.

Tijorat banklarini soliqqa tortish muammosi bir muncha qiziqarlidir, chunki u o'z ichiga turli xil bir qator iqtisodiy va huquqiy rejalarni oladi. Hozirgi kunda banklar faoliyatidagi muammo sifatida banklarning roli bilan bir qatorda bank tizimining ilmiy faoliyati darajasi, ularni soliqqa tortish, soliq to'lovchilar va davlat o'rtasidagi vositachi sifatidagi vazifasining bajarilishi kabilarni kiritishimiz mumkin. Bunday holat banklarga davlat tomonidan belgilanadigan soliq talablari jarayonini qiyinlashtiradi va bank sektorida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ijobiy ta'sirini cheklaydi. Banklarning ishonchliligini oshirish va iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi ishtrokini faollashtirish maqsadida busiz bank sektorining soliqqa tortish tizimini motivatsion, tartibga solish ta'sirini mustahkamlash mumkin emas.

Tijorat banklarini soliqqa tortishda ham muammolar mavjud, chunki tijorat banklari yirik soliq to'lovchilargina bo'lib qolmasdan, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektdir.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi, tijorat banklarini soliqqa tortish tizimida ham ayrim muammo va kamchiliklar uchrab turibdi.

Tijorat banklarini soliqqa tortish bilan bog'liq muammolar:

- ✓ Tijorat banklarini soliqqa tortish bo'yicha me'yoriy huquqiy bazaning yetarli emasligi;

Tijorat banklarini soliqqa tortish boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlardan farq qiladi, banklarni soliqqa tortishning asosiy huquqiy bazasi sifatida Soliq Kodeksini ko'rishimiz mumkin.

- ✓ Soliqqa tortish tizimida MHXS (moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari) ning amaliyotga to'liq joriy etilmaganligi va muammolari.

BHMS (buxgalteriya hisobining milliy standartlari) bilan MHXS (moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari) ni muvofiqlashtirish kerak, chunki moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarining talablari bizning milliy standart talablariga har doim ham mos kelavermaydi. Bu esa bir qancha bahs-munozaralarga sabab bo'lishi mumkin.

- ✓ Soliqning buxgalteriya hisobini yuritishda xalqaro standartlardan foydalanmaslik;

Xalqaro hisob tizimi bo'yicha agar bank soliqlarni belgilagan miqdoridan ortiq to'lagan bo'lsa, bu miqdor bankning foyda hisobini yuritadigan hisobvarag'iga olib boriladi, bank ortiqcha to'langan soliq summasidan aksionerlariga dividendlar to'lashi mumkin. Lekin soliq tizimining hisobi bo'yicha esa bu miqdor budget hisobvaragida saqlanadi, bu esa bank uchun ushbu mablag'dan foydalana olmaslik imkonini keltirib chiqaradi.

- ✓ Banklarga berilayotgan soliq imtiyozlarining kamligi yoki umuman qo'llanilmayotganligi;

Tijorat banklarida foyda solig'i hisoblanayotganda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib yuboriladigan imtiyozlar ular faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bu imtiyozlar natijasida tijorat banklarining foydasining bir qismi soliqqa tortilishdan ozod bo'lib, ularga o'z sarmoya fondlarini oshirish, asosiy vositalarni yangilash, xizmat ko'rsatish va ishlar bajarish faoliyatlariga yangi texnikaviy vositalarni kiritish hamda bu mablag'lardan moliyaviy aylanma mablag'lar manbasini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Hozirgi yilga qadar respublikamizda bir qancha imtiyozlar amalda bo'lib kelgan, joriy yilda bu

imtiyozlar soni anchagina qisqargan. Tijorat banklarini soliqqa torishda yangi imtiyozlarni joriy qilish yoki amalda bo'lgan imtiyozlar muddatini uzaytirish kerak.

Shuningdek, 2009 yildan boshlab tijorat banklarining soliq solinadigan foydasi jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar bo'yicha omonatlar hamda joylashtirilgan jamg'arma sertifikatlar hajmlarining ko'paygan summasiga bo'shagan mablag'larni omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan kamaytirilishi Soliq Kodeksining 159-modda ikkinchi qismiga kiritilgan edi. 2013 yilning 25 dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2014 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-359 sonli Qonuni 2-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq mazkur imtiyoz 2014 yil 1 apreldan e'tiboran bekor qilindi.⁶⁹ Ushbu imtiyoz muddatini uzaytirish yoki tijorat banklarida jalb qilinadigan omonatlar uchun yangi imtiyoz joriy etilishi kerak. Chunki banklar tomonidan jalb qilinadigan omonatlar ular faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bankning asosiy resurs bazasi jalb qilingan omonatlar hisobidan shakllanadi. Tijorat banki jalb qilingan mablag'larni daromad keltiruvchi aktivlar (kredit, lizing va h.k) ga yo'naltirib, ushbu aktivlardan yuqori daromad oladi. Respublikamiz banklarining asosiy va yuqori daromad manbai bu berilgan kreditlardan ko'riladigan daromadlar hisoblanadi. Bu imtiyozning qo'llanilmasligi bu daromadlar hajmining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, fuqarolardan jalb qilingan omonatlar, ushbu omonatlar hajmining ko'paygan summasi foyda solig'idan iqtisod qilinib, bank foydasi o'sishiga va bankning resurs bazasi oshishiga erishiladi. Tijorat banki jismoniy shaxslardan jalb qilingan omonat summalarini yuqori foizli depozitlarga joylashtirishi bilan ushbu mablag'larni daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltirsa, soliq imtiyozidan foydalanib iqtisod

⁶⁹ Toshmatov Sh. Tijorat banklarida foyda solig'i stavkalarini tabaqalashtirish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2014. - № 12. – 3 b.

qilingan mablag'larni depozitlar foizini o'sishiga yo'naltirsa, uning ushbu operatsiyalardan ko'radigan iqtisodiy samarasi ijobiy bo'lib, sof foyda hajmining oshishiga olib keladi.⁷⁰

- ✓ Tijorat banklarining daromad yoki foydasiga beriladigan imtiyozlarning alohida hisobvaraqlarda yuritilmasligi;

Tijorat banklarida foyda solig'ini hisoblashda dastlab bank daromadlaridan xarajatlari chegirilgan holda aniqlanadigan soliq to'lagunga qadar foydani hisoblab topish zarur. Bunda alohida e'tibor berish lozimki, tijorat banklari tomonidan bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish shart bilan soliqlardan imtiyoz berilgan operatsiyalar bo'yicha olingan daromadlar va qilingan xarajatlar ham soliq to'lagunga qadar foydani hisoblashda inobatga olinishi lozim. Chunki O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 02.04.2005 yilda 1463 – son bilan ro'yxatdan o'tgan “Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni budjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida” gi Nizomga muvofiq bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan soliq imtiyozlari berilganda soliqlar umumbelgilangan tartibda hisoblanishi, hisoblangan summa budjetga o'tkazilmasdan alohida hisobvaraqda jamlanishi va soliq imtiyozlaridan maqsadli foydalanilisi bo'yicha hisobi yuritilishi lozim. Lekin tijorat banklarining hisobi hisobvaraqlari rejasida bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyozlarini yuritish bo'yicha hisobvaraqlarning keltirilmaganligi bunday imtiyozlarning hisobini yuritishda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ma'lumki korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishda alohida 8840 – “Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari” hisobvarag'i kiritilgan bo'lib, ushbu hisobvaraq orqali bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyozlari hisobining yuritilishi belgilab qo'yilgan. Shu bilan

⁷⁰ Abdullayev A. Soliq imtiyozlarining banklar resurs bazasini oshirishdagi ahamiyati // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2012. - № 9. – 48b.

birga yuqorida keltirilgan Nizomga muvofiq soliq imtiyozlari berilishi natijasida bo'shagan mablag'lardan maqsadli foydalanganligini tasdiqlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'yektlar har yili yillik moliyaviy hisobotga qo'shib davlat soliq xizmati organlariga o'rnatilgan shaklda hisob-kitob taqdim etishlari shart. Bunda soliq imtiyozlari natijasida bo'shagan mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalanilmaganligi dalillari aniqlanganda ushbu mablag'lar jarima jazosini qo'llab, penya hisobga olingan holda budjetga undiriladi.⁷¹

- ✓ Banklarda moliyaviy xizmatlardan tashqari ko'rsatilga boshqa xizmatlariga qo'shilgan qiymat solig'i o'rnatilganda xizmatlar bilan bog'liq har xil risklar hisobga olinmaydi, bu esa ko'pgina bahsli holatlarga sabab bo'ladi;
- ✓ Foyda solig'i stavkasining yuqoriligi;


Soliq tizimini o'zgartirishda asos qilib olingan bosh tamoyil - tijorat banklari zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirishdir. Foyda solig'ining yuqori bo'lishi banklarni (shuningdek, korxona va tashkilotlarni ham) o'z mablag'larini o'z ishlab chiqarishni (xizmatlar ko'rsatishi, ishlar bajarishi)ni rivojlantirishga, texnik qayta qurollantirishga, o'z aylanma mablag'larini to'ldirishga sarflash imkoniyatidan mahrum qiladi. Bu esa oqibat natijada ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish)ni pasayishiga olib keladi. Buning ustiga og'ir soliq yoki uzoq muddat zimmada turishi natijasida inflyatsiya (pulning qadrsizshlanishi) yuksak darajada bo'lishini bevosita qo'llab-quvvatlash xavfi vujudga keladi. Buning sababi shuki, ishlab chiqarish pasayib borayotgan bir paytda soliq miqdori korxona va tashkilot, jumladan tijorat banklari daromadlarining inflyatsiyasi kuchayib borishi natijasidagina oshirilishi mumkin. Bu esa moliya tizimining barbod bo'lishiga, ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish)ning orqaga ketishi, ijtimoiy muammolarning keskinlashuviga olib keladi. Banklarda ba'zi soliq stavkalarining yuqoriligi, jumladan foyda solig'i. Soliq stavkasini birmuncha pasaytirish hisobiga

⁷¹ Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2013. - № 8. – 23 b.

banklarda bo'sh pul mablag'larini ko'paytirib, banklarning kreditlash salohiyatini oshirishga erishishimiz mumkin.

✓ Foyda solig'ini hisoblash metodikasining murakkabligi;

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortish mexanizmi bank tizimidagi amaliy materiallarni keng jalb etish yo'li bilan tahlil qilingan holda, uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, salbiy tomonlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Bu mexanizmni bozor iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqqan holda bir vaqtning o'zida hamda davlat budjetining va tijorat banklarining manfaatiga mos keladigan yo'nalishda takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'z aksini topgan (16-rasm).



16-rasm. Bank foydasini soliqqa tortishdagi muammolar⁷²

Soliqqa tortish maqsadida tijorat banklari foydasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni to'liq muhokama etish uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatining natijaliligini tavsiflovchi umumiy ko'rsatkichlardan foydalanish va bu ko'rsatkichlardan bank boshqaruvi tijorat banklari xarajatlarini oqilona almashtirish uchun nazorat shaklida foydalanishlari kerak.

⁷² Toshmatov Sh. Tijorat banklarida foyda solig'i stavkalarini tabaqalashtirish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2014. - № 12. – 3 b.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishni takomillashtirish bir necha yo`nalishda amalga oshirilishi kerak. Bank ixtiyorda qoladigan foyda miqdorining ortib borishi ularning moliyaviy ahvolini mustahkamlabgina qolmay, balki o`z hisobidan asosiy ishlab chiqarishi muhim iqtisodiy yo`nalish talablarini qondirishga yaratilgan korxona va tashkilotlarga kreditlar sifatida berilishiga hamda investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishga ham olib keladi. Bu narsa ishlab chiqarishni tarkibiy o`zgartirish uchun ishlab chiqarish va texnologiya jihatidan asos bo`lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari soliqqa tortish mexanizmi va uning alohida elementlari (jumladan, soliqqa tortish ob'yekti ham) jamiyatning rivojlanishiga mos ravishda takomillashib borishi va faqat davlat xazinasini to`ldirish instrumentiga aylanib qolmasdan, balki tijorat banklari faoliyati samaradorligini yuqori pog'onaga ko'tarishda kuchli rag'batlantiruvchi richag bo`lib xizmat qilishi kerak.

- ✓ Soliq solinadigan bazaga qayta qo'shiladigan xarajatlar yoki chegirilmaydigan xarajatlar miqdorining ko'pligi, ular tarkibini qisqartirish kerak, bu xarajatlar miqdorining ko'p bo'lishi sof foyda hajmiga ta'sir qiladi, bank tomonidan to'lanadigan foyda solig'ini ko'paytiradi;
- ✓ Tijorat banklarini soliqqa tortishda hisob-kitob ilovalari miqdorining ko'pligi va murakkabligi;
- ✓ Soliq to'lovchining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini o'tkazish topshiriqnomasi, tegishli vakolatli organning ularni undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasi bajarilmagan (bajarilishi kechiktirilgan) taqdirda, bankdan har bir kechiktirilgan kun uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'tkazilmagan summasini 0,5 foizi miqdorida belgilangan tartibda penya undiriladi. Ushbu penya foizining yuqoriligi, chunki xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga 0,003 foizda penya undiriladi. Banklarda penya miqdorini pasaytirish kk, chunki uning yuqoriligi bankning sof foydasini kamaytiradi, bank faoliyatiga salbiy ta'sir qilishi va bankrotlik holatiga olib kelishi mumkin;

- ✓ Bank sistemasiga davlatning yuqori darajada aralashuvi: bu holat raqobatning rivojlanishini cheklaydi va xususiy kapital o'sishini qisqartiradi va buning oqibatida tijorat banklari kutilgan foydani ololmasliklari mumkin.
- ✓ Tijorat banklarini soliqqa tortishda soliq nazoratini takomillashtirishda, avvalo tijorat banklaridagi hisob-kitoblar tizimiga alohida e'tibor berilishi kerak va ularning mutanosibligini kuzatuvdan chetda qoldirmasligi muhim ahamiyatga ega. Chunki hisob-kitoblarning aniqligi katta ahamiyatga egaki, bunda tijorat banklari tomonidan hamda soliq nazorati xodimlari tomonidan tekshiruvlar osonlashadi. Tijorat banklarining foydasini soliqqa tortishda soliq nazoratini o'rnatish va takomillashtirishda, avvalo, tijorat banklarining tegishli moliyaviy hisobotlari va ma'lumotnomalarini tahlil qilish, ularga yetarli baho berish va o'rnatilgan tartibni ta'minlash, soliq nazoratini kuchaytirish zarur. Bozor iqtisodiyoti islohotlarining eng muhim vazifalaridan biri budget kamomadini cheklash, xarajatlarini oqilonalashtirish va uning daromad qismini oshirishdan iborat bo'lgan bir paytda, banklar tomonidan to'lanayotgan soliqlar va yig'imlar ham bu muammoni hal etishda o'zining munosib hissasini qo'shadi.
- ✓ Tijorat banklarining soliqqa tortish tizimini rivojlantirish boshqa soha tarmoqlarining rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqlikda bo'lishi kerak. Hozirgi bosqichda banklarning soliq qonunchiligi murakkab va dinamik hisoblanadi. Bu ham bir muammodir, chunki soliq talablari normalarining murakkabligi, noaniqligi, banklar moliyaviy ahvoli, ularning obro'si bilan bog'liq risklarni ko'paytiradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun yangi yoki mavjud usullarni, soliq bazasining shakllanish tizimini takomillashtirish va soliq hisobi usullarini qayta ko'rib chiqish zarur.
- ✓ Shuningdek, bank mahsulotlariga soliq solish tartibini amalga oshirishda ishonchlilikning yetarli emasligi, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, ya'ni bunday holat soliq organlari va banklar o'rtasida bahs munozaralarga sabab bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan muammo soliq ma'muriyatining yangi

shakllarini joriy etishni talab etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tijorat banklarini soliqqa tortish va soliq nazoratining metodologiyasi bilan banklar nazorati va soliq tahlili o'zaro bog'langan bo'lishi kerak. Bu natija bankning manfaatlari bilan soliq organlarining manfaatlari uyg'unlashtiradi.

- ✓ Tijorat banklarini soliqqa tortish muammolarini integratsiya jarayonlarini rivojlantirish bilan ham bog'lash mumkin. Rivojlantirishning asosiy yo'nalishi xorijiy banklarning ishtroki bo'lib, respublikamizning iqtisodiy rivojlanishini, biznes aylanmasi, uning hajmini mustahkamlaydi. Bundan tashqari xorijiy banklarning mavjudligi raqobat darajasini oshiradi. Raqobat bugungi kunda bank faoliyati rivojlanishining, barqarorligini, o'sishning yuqori darajasini ta'minlashning asosi hisoblanadi.⁷³
- ✓ O'zbekistonda banklarning soliq to'lash tizimini samarali rivojlantirishning shart-sharoitlarini yaratish, uning sifat darajasini oshirish uchun tizimni ichkaridan takomillashtirish, bankda mavjud to'siqlarni bartaraf qilish zarur. Respublikamiz soliq islohotlarining ko'p yillik tajriba tahlillaridan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda jahon soliq siyosatining istiqbollari bo'yicha soliq tizimini isloh qilishga e'tibor qaratish kerak degan xulosaga olib keladi. Bunda banklarni soliqqa tortishning ichki tadqiqot tajribalari va dinamikasini hisobga olish kerak.

Soliqlar budjetni mablag' bilan to'ldirish tizimi bo'lib qolmasdan, balki tijorat banklari faoliyatini tartibga solish usuli hamdir. Bank tizimining uzluksiz ishlashi butun bir iqtisodiyot uchun fundamental ahamiyatga ega. Tijorat banklarini soliqqa tortishning maqsadi – ularning yirik, iqtisodiyotning kuchli soliq to'lovchisi, budjet daromadlarining ishonchli manbasi bo'lishi kerak.

⁷³ Yermoshina T.V., Uvarova I.A. Stimulirovaniye investitsionnoy deyatelnosti kommercheskix bankov cherez sistemu nalogooblojeniya // Kontentus. 2013 y. - № 4. -19-24 b.

3.2. Tijorat banklarining soliq to'lash tizimi va soliq hisobini takomillashtirish masalalari

Soliqlar tizimini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotidagi eng dolzarb muammolardan bo'lib, respublika iqtisodiyotidagi yangi hodisalar, bozor iqtisodiyotiga o'tish tomon yo'naltirilganligi iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy usullaridan, shu jumladan soliqlardan faollik va omilkorlik bilan foydalanishni taqozo etadi.

Hukumatimizning islohotlarni amalga oshirishning chora-tadbirlaridan kelib chiqib, korxona va tashkilotlarni, shuningdek tijorat banklarini soliqqa tortishda soliqqa tortishdagi imtiyozlarining mavjudligi iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash birinchi navbatdagi vazifaga aylangan chog'da soliq tizimi birinchi galda rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak. Banklar qator soliqlardan ozod qilinganligi ana shu e'tiborning yaqqol isbotidir. Soliqlardan bo'shagan mablag'lar banklarga eng zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga imkon berdi. Soliq imtiyozlari amalda bo'lgan davrda banklar o'z filiallari va bo'limlari tarmog'ini kengaytirish, ularni eng zamonaviy bank asbob-uskunalar va aloqa vositalari bilan jihozlash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan yana biri imtiyozlar tizimi bilan bog'liqdir. Respublikamizda tijorat banklarida soliq imtiyozi orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish va muvozanatlashtirish kabi bir nechta amaliy tadbirlar olib borilmoqda.

Xususan, Prezidentimizning 2006 yil 5 maydagi PF-3750 sonli "Mikrokredit bank" aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni va unga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi PF-4051 sonli "Mikrokredit bank " aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni bilan kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq "Mikrokreditbank" 2015 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan

muddatda, soliq imtiyozlari tufayli bo'shaydigan mablag'larni bankning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga maqsadli yo'naltirish sharti bilan foyda va mulk soliqlari to'lashdan, olib kelinadigan bank uskunalari va texnologiyalari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtirishi uchun yig'imlardan tashqari) hamda bank foydasiga undirilgan mulkni sotishdan qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 9 dekabrda PF-4677-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga 2015 yil 1 yanvardan boshlab o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" gi Farmoniga muvofiq bu imtiyoz 2018 yilgacha uzaytirildi.⁷⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida tijorat banklarining investitsiya faoliyati kengaytirilishini yanada rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish maqsadida 2015 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan muddatda tijorat banklari kredit portfeli tarkibidagi uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha foyda solig'ini to'lash yuzasidan imtiyozlar belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ – 2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaroriga muvofiq ushbu imtiyozning amal qilish muddati 2020 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi.⁷⁵

Mazkur qarorga asosan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 19 oktabrda 2021-son bilan ro'yxatga olingan

⁷⁴ Abdullayev. A. Soliq imtiyozlarining banklar resurs bazasini oshirishdagi ahamiyati //Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2012. - № 9. – 46 b.

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ – 2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

“Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig’i bo’yicha soliq imtiyozlarini qo’llash tartibi to’g’risida”gi Nizomga ko’ra foyda solig’i stavkasi kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab quyidagicha tabaqalashtiriladi : (17- rasm):

Tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi	Foyda solig’ining imtiyozli stavkalari (amaldagi stavkaga nisbatan %da)
35 dan 40% gacha	80%
40 dan 50% gacha	75%
50 % dan yuqori	70 %

17-rasm. Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig’ining imtiyozli stavkalari.⁷⁶

Mazkur nizomga muvofiq uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashga uch yildan kam bo’lmagan muddatda beriladigan investitsiyaviy kreditlar (jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlardan tashqari) va uch yildan kam bo’lmagan muddatga ko’rsatilayotgan lizing xizmatlari hamda banklar tomonidan olinadigan ishlab chiqarish korxonalari negizida tashkil etiladigan kompaniyalar aktivlariga banklar tomonidan yo’naltiriladigan mablag’lar kiritiladi.

Tijorat banklarida nogironlar mehnatidan foydalanganlik uchun ham imtiyozlar mavjud. Bunda tijorat bankida ishlovchi jami xodimlarda nogironlar ulushidan kelib chiqib, foyda solig’i bo’yicha chegirmalar beriladi. Hisob-kitoblarni amalga oshirishda ishga joylashtirilgan nogironlarning belgilangan me’yori sifatida 3 foizlik miqdor chegirilib, undan oshgan qismining har bir foiziga bir foiz foyda solig’i kamaytiriladi.

⁷⁶ Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2014. - № 12. – 6 b.

Bundan tashqari tijorat banklarining korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va qayta tiklash, ularni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash hamda qaytadan jihozlashni ta'minlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha bevosita ishtrokini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053 sonli "Iqtisodiy real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni hamda 2008 yil 19 noyabrdagi PF-4010 sonli "Tijorat banklariga iqtisodiy nochor korxonalarni realizatsiya qilish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoyishi e'lon qilingan. 2008 yil 19 noyabrdagi 4010-sonli Farmoyishiga muvofiq quyidagi soliq imtiyozlari joriy etilgan.:

- Bankrot korxonalarni yoki ularning mol-mulkini tijorat banklari mulkiga topshirish, sotish, uni xo'jalik sub'yektlari ustav fondiga kiritish, shuningdek bankrot korxona mol-mulki bazasida yangidan tashkil etilgan xo'jalik sub'yektlarini keyingi navbatda banklar tomonidan realizatsiya qilish qo'shilgan qiymat solig'iga tortishdan ozod etiladi;
- Bankrot korxona mol-mulki bazasida yangidan tashkil etilgan xo'jalik sub'yektlari foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, mol-mulk solig'i va yer solig'idan bo'shagan mablag'larni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga va ishlab chiqarishni rivojlantirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan, ular strategik investorga sotilgunga qadar, lekin davlat ro'yxatidan o'tgandan boshlab uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozod etiladi;
- Tijorat banklari tomonidan ta'sis etiladigan boshqaruv kompaniyalari davlat ro'yxatidan o'tgandan boshlab dastlabki ikki yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovidan ozod etiladi.

Tijorat banklariga bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyoziga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 11-martdagi PQ 1501-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq berilgan imtiyozlarni keltirish mumkin. Ushbu qarorga asosan, tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi resurslari hisobidan kredit berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan yuridik shaxslar foydasidan to'lanadigan soliqlardan 2011-yil 1-apreldan boshlab 2016-yilning 1-yanvarigacha ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ – 2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq:

- Imtiyozli kreditlash maxsus Jamg'armasining resurslari hisobidan berilgan kreditlar orqali tijorat banklari oladigan daromadlari, bo'shayotgan mablag'larni mazkur Jamg'arma resurslarini oshirish uchun maqsadli yo'naltirish sharti bilan foyda solig'ini to'lashdan 5 yil muddatga;
- Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha, dasturiy ta'minot, bankomat va plastik kartochkalar orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan boshqa uskunalarni import bo'yicha olib kirilganida tijorat banklari boj to'lovlarini to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) 2020 yilning 1 yanvariga qadar ozod etilishi belgilab qo'yilgan.⁷⁷

Bundan tashqari, Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlardagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi soliqlardan ozod etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida ham bir qator imtiyozlar berilgan. Ya'ni, tijorat banklarida soliq solinadigan foyda quyidagilarga kamaytirilishi mumkinligi ko'rsatilgan:

- Ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish,

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ – 2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga beriladigan homiylik va xayriya summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- Yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda.⁷⁸

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarorida tijorat banklari ixtiyoriga o'tgan bankrot korxonalarning mulki negizida tashkil etilgan xo'jalik sub'yektlari strategik investorlarga sotilgan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida mazkur Farmoyishda nazarda tutilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, 2013 yil 29 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 38-son, Markaziy bank boshqaruvining 8/1-son va Davlat soliq qo'mitasining 2013 yil 15-sonli qarori bilan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlarga taaluqli operatsiyalar ro'yxati tasdiqlangan. Unga ko'ra, shartnomada belgilangan stavkalar bo'yicha kreditor tomonidan olinadigan va post-moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan bevosita foizli daromadning o'zi, shuningdek vositachilik haqi, qarzdor tomonidan shartnomada kelishilgan sug'urta va qo'shimcha to'lovlarni qoplash, shuningdek mazkur xizmatlarni ko'rsatish munosabati bilan olingan boshqa turdagi daromadlar (shu jumladan, xalqaro moliya institutlari va chet el banklari tomonidan ajratilgan kredit liniyalaridan foydalanish hisobiga) ozod etiladi. Depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar munosabati bilan olinadigan

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – Toshkent, 2014. 159-m.

foizlar, shuningdek vositachilik haqi, abonent to'lovi va boshqa shu kabi daromadlar ham ozod etilgan.

To'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish munosabati bilan olinadigan vositachilik haqi, abonent to'lovi va boshqa turdagi daromadlar, shuningdek xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda mijozlarning topshirig'i bo'yicha hujjatlarni jo'natish va to'lovlarni o'tkazish bo'yicha xizmatlar uchun chet el banklari va kompaniyalari tomonidan so'zsiz tartibda bank hisobvrag'idan undiriladigan shartnoma shartlariga asosan mijozlar tomonidan qoplanadigan vositachilik haqi ozod etiladi.

Mijozlarning hisobraqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar (internet banking, mobil banking, sms banking, bank mijoz tizimlari va boshqalar) qo'shilgan qiymat soig'idan ozod etilgan.⁷⁹

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan soliq imtiyozlari nafaqat banklarning rivojlanishiga va foydasining oshishiga, balki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda ishlab chiqarishning rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shadi.

Soliqqa tortishning ob'yekti bo'lgan tijorat banklarining daromadini shakllantirish masalasiga katta ahamiyat berishi va uning bank uchun ham, davlat budjeti uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi bu masalani takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shunday ekan tijorat banklarining daromadini shakllantirishni takomillashtirish ular faoliyatidagi eng katta muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Bu masalani hal etishga tijorat banklari daromadlarini maksimallashtirish va uning xarajatlarini oqionalashtirish, optimallashtirish usuli bilan erishish mumkin.

Bugungi kunda tijorat banklari daromadini shakllantirishni takomillashtirish zarur, buning uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlardan

⁷⁹ Shmakova N. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2013. - № 7. – 16,17 b.

oqilona foydalanmoq zarur, bu esa bankning moliya bozorida to'laonli raqobatbardosh, o'z aksionerlari va mijozlari manfaatlarini himoya qila oladigan haqiqiy moliya instituti sifatida shakllanishida, ikki pog'onali bank tizimining qobil va qodir ishtirokchisi bo'la olishida, istiqboli va nufuzi bilan sharaflil banklar safidan o'rin olishiga ishonch tug'diradi. Ko'rsatilgan natijalarni va boshqa tijorat banklari daromadlari natijalarini "Foyda va zararlar to'g'risida" gi hisobotlarga asosan tahlil qilishning ko'rsatishicha, hozirgi paytda respublikamiz bank tizimida mavjud bo'lgan tijorat banklari daromadlarining asosiy qismi berilgan kreditlar bo'yicha olingan foizlar hisobidan shakllangan. Xuddi shunday vaziyat valuta bozorida va qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha daromadlar, banklar va mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha olingan komissiyalar va boshqa daromadlarga ham xosdir. Shularni inobatga olgan holda respublikamiz bank tizimidagi tijorat banklari daromadlarining tarkibiy tuzilishi talab darajasida emasligi, bu jarayonning risklilik darajasi ancha yuqoriligi, daromadlarni shakllantirishda diversifikatsiyalashtirish siyosatiga yetarli darajada rioya qilinmayotganligi, hanuzgacha daromadlarni shakllantirishning an'anaviy shakllaridan foydalanib kelinayotganligi, uning yangi ilg'or shakllariga kam e'tibor berilayotganligini ta'kidlash mumkin. Bunday kamchiliklarning oldini olish, ya'ni tijorat banklari daromadlarining tarkibiy tuzilishini oqilona yo'lga qo'yish ular daromadlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Respublikada tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori faoliyat ko'rsatishlari uchun ilg'or jahon tajribasidan keng foydalanishlari, daromadga ega bo'lishning an'anaviy usullari bilan cheklanib qolmasdan, balki uning yangi variantlari yoki usullarini tashkil etishlari, kreditlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan bank xizmatlarining turlari tarkibini kengaytirishlari va shu faoliyatdan olinadigan daromadning salmog'ini bankning umumiy daromadiga nisbatan oshirishga erishishlari kerak.

Tijorat banklari amaliyotida foyda (zarar) bankning daromadi va xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida namoyon bo'lganligi uchun tijorat banklari tomonidan qilinadigan xarajatlarni oqilonalashtirish bilan bog'liq bo'lgan (foydani

maksimallashtirish nuqtai-nazaridan) masalalarga ham alohida e'tibor berilishi kerak. Hozirgi paytda tijorat banklari xarajatlarining asosiy qismi to'langan foizlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga to'g'ri kelsada, bu xarajatlarning bir qismini hisob-kitob, depozit, joriy schotlar va fuqarolar omonatlari bo'yicha to'langan foizlar va ikkinchi qismini esa, boshqa banklardan olingan kreditlar bo'yicha to'langan foizlar tashkil etadi. Vaziyatning bu tarzda ekanligi respublika tijorat banklari resurslarni jalb qilish masalasiga ikki xil tarzda yondoshayotganliklarini ko'rsatayapti. Tijorat banklari xarajatlarida to'langan foizlar salmog'ining yuqori darajada ekanligini banklarning resurslari (vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni) bank oborotiga jalb etish bo'yicha aktiv siyosat yurgizayotganligini va tijorat banklari jalb etilayotgan resurslar bahosini pasaytirish yo'llarini qidirib topishlari kerak. Bu, o'z navbatda, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar bahosining (foiz stavkasining) pasayishiga olib kelishi mumkin.

Valuta bozoridagi va qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha xarajatlar tijorat banklari xarajatlarining umumiy hajmiga nisbatan ancha kam salmoqqa ega. Bunday vaziyat bu tarzdagi xarajatlarning keyingi yillar davomida paydo bo'lganligi va ularning bank nisbatan yangiligi bilan izohlanadi. Biroq tijorat banklarining qisqa davrdagi amaliy faoliyati bu xarajatlar hozirgi davrda eng oqilona qilinayotgan xarajatlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Chunki qilingan bu xarajatlar o'zlarining hajmiga nisbatan, ayrim hollarda, bir necha o'n barobar ko'proq daromad keltirgan, Shuning uchun tijorat banklari o'z faoliyatlarida xarajatlarni samarali sarflashning bu yo'lga alohida e'tibor bilan qarashlari kerak. Xarajatlarining tarkibiy qismi bo'lgan ma'muriy xarajatlar bir necha banklarda salmog'i asossiz katta. Bu xarajatlarni ma'lum ma'noda unumsiz (daromad yaratishga bevosita aloqasi bo'lmagan) xarajatlar deb qaraladi. Shuningdek, quyidagi yo'nalishdagi masalalarga e'tibor qaratish lozim:

- Tijorat banklari daromadlarining ayrim turlarini soliq solinadigan bazaga kiritmaslik;

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro'y berayotgan real holatlar bevosita davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bosh islohotchi ekanligi bilan belgilanayotganligi, tabiiydir. Shunga mos ravishda tijorat banklari uchun hukumatning maqsadli dasturlari va loyihalarini kreditlashtirish uchun tegishli imtiyozli sharoitni yaratish zarur. Xuddi shunga o'xshagan fikr Markaziy bankning loyiha va dasturlariga nisbatan ham tegishlidir. Bularning kafolati ostida amalga oshiriladigan dastur va loyihalar uchun tijorat banklari tomonidan olinadigan foizlar, odatda, bozor foizlariga nisbatan birmuncha past bo'ladi va ular (shular bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar) noqonuniy tarzda soliqqa tortishdan ozod qilingan bo'lishi kerak. Hukumat va Markaziy bank dasturlari, loyihalarini moliyaviy va kredit jihatdan ta'minlashda tijorat banklarining ishtirok etishi tijorat banklari manfaatlari nuqtai-nazaridan ham yaxshidir. Chunki bu tadbirlarda ishtirok etish tijorat banki tomonidan beriladigan kreditning o'z vaqtida qaytarilishi va uning kafolatlanganligi nuqtai-nazaridan bunday kreditlarni boshqa kreditlar bilan taqqoslab bo'lmaydi. Bu operatsiyalarning risklilik darajasi ham boshqa operatsiyalarga nisbatan ancha pastdir. Garchi shu omillarni hisobga olib rivojlangan mamlakatlarda bunday kreditlarga nisbatan past stavkalar o'rnatilayotgan bo'lishiga qaramasdan bu tartibni hech o'zgarishsiz bizning amaliyotimizga joriy etish maqsadga muvofiq emasdir. Chunki, hech bo'lmaganda, bizning mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining sharoitlari rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarining sharoitlariga teng emasdir. Shuning uchun ham bu narsa soliqqa tortish masalalari hal etilayotgan paytda hisobga olinishi lozim.

- Soliqqa tortiladigan ob'yektni haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarni hisobga olgan holda ma'lum summaga kamaytirish;

Bu yerda tijorat banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, oldingi yillar uchun to'langan foizlar va komission yig'imlari hamda o'tgan yillarda mijozlardan ortiqcha undirib olingan foizlar va komission yig'imlarini qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning tegishli tartibda chegirilishi tijorat banklari foydasining soliqqa tortilishida katta

ahamiyatga ega ekanligani ko`rish mumkin. Chunki bu chegirmalar tijorat banki foydasining oshishiga olib kelsa, o`z navbatida ularning soliqqa tortilish bazasiga ham shunday ta`sir ko`rsatadi.

- Tijorat banklari foydasidan olinadigan soliq stavkalarini ma'lum ob'yektiv sabablarni inobatga olgan holda tabaqalashtirish;

Amaliyotda vujudga kelgan real vaziyatni atroflicha o`rganish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari foydasidan olinadigan soliqning stavkasini baholashga nisbatan bunday yondashishning o`ziga xos asoslari bor. O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aksariyati aksionerlik tijorat banklari ekanligini qayd etib o`tish lozim. Bu banklar, asosan, iqtisodiyotning alohida olingan u yoki bu tarmog`iga xizmat ko`rsatishga ixtisoslashtirilgandir. Biroq ularning faoliyat ko`rsatish shart-sharoitlari bir-biriga to`g`ri kelmaydi. Har xil faoliyat turi bilan shug`ullanuvchi mijozlarga xizmat ko`rsatuvchi turli banklarga nisbatan bir xil soliq stavkasining o`rnatilishi maqsadga muvofiq emasdir. Shuning uchun tijorat banklari foydasidan olinadigan soliqning stavkasi o`rnatilayotgan paytda ularga nisbatan tabaqalashtirilgan holda yondashish zarurdir. Bu holda quyidagi mezonlarga rioya qilinishi kerak:

- a) tijorat banki foydasidan olinadigan soliqning o`rnatilgan stavkasi ixtisoslashtirilgan tijorat banklari uchun bir xil darajadagi foyda normasining olinishiga (foydadan olinadigan soliq summasi chegirilgan) real sharoitni yaratib berishga xizmat qilishi lozim;
- b) bank foydasidan olinadigan soliq stavkasi belgilanayotgan paytda tijorat banklarining vujudga kelgan vaqti hisobga olinishi kerak;
- c) yangidan tashkil topadigan tijorat banklari uchun foydadan olinadigan soliqning stavkasini o`rnatishning alohida tartibi amal qilishi lozim. Ular tegishli tartibda qayddan o`tgan kundan boshlab ma'lum muddatgacha foydadan olinadigan soliqdan batamom ozod qilinishi kerak. O`sha muddat tugaganidan so`ng esa, navbatdagi yil davomida turdosh faoliyat ko`rsatayotgan banklarga nisbatan belgilangan soliq stavkasining 25% darajasida, keyingi ikkinchi yil davomida belgilangan soliq stavkasining

50% darajasida, navbatdagi uchinchi yil davomida belgilangan soliq stavkasining 75% darajasida va nihoyat, keyingi to'rtinchi yildan boshlab esa, turdosh faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklariga o'xshash o'rnatilgan soliq stavkasining 100% darajasida foydadan olinadagan soliqni to'lashga o'tish lozim;

- d) xorijiy hamkorlar ishtirokida tashkil topadigan tijorat banklariga nisbatan foydadan olinadigan soliqning stavkasini alohida belgilash zarur;
- e) tijorat banklari foydasidan olinadigan soliqning stavkasi o'rnatilayotgan paytda, albatta, tijorat banklarining qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarga o'z faoliyatini qaratgan tijorat banklariga nisbatan alohida yondashish kerak.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Mana shu bosqichda quyidagilar eng muhim va birinchi navbatdagi choralar sifatida olg'a suriladi:

- soliq siyosatini yanada takomillashtirilishi lozim. Bunday siyosatning vazifasi bir tomondan, budget daromadlarining barqaror tarzda safarbar etilishini ta'minlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, respublika uchun zarur mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda korxonalarni rag'batlantirishdir;
- ✓ kredit bank tizimini, pul muomalasini mustahkamlash, valuta munosabatlarini tartibga solish, naqd to'lov mablag'lari oborotini tartibga solish ham pul muomalasini sog'lomlashtirishga ko'maklashadi. Aniq puxta ishlab chiqilgan va yetarli darajada qattiq bo'lgan moliya-kredit siyosatini amalga oshirish respublikaning bozorga o'tishidagi eng muhim bo'g'in hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'pgina soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etar ekan, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng katta boshqaruvchi omil bo'lib qoladi. Avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani - fiskal (xazinani to'ldirish), qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak. Budgetdagi mutanosiblikni kuchaytirish maqsadida, soliq

tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, tijorat banklarining (o'z navbatida korxona va tashkilotlarning ham) moliya intizomini mustakkamlash, to'lov oborotini bir me'yorga keltirish, to'lamaslikning, debitorlik va kreditorlik qarzlarning salbiy oqibatlarini tugatish katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda respublikamiz banklarini soliqqa tortish masalalarini optimallashtirish uchun soliq tizimining milliy qonunchiligini, shuningdek banklardagi soliqlarning maxsus rolini takomillashtirish zarur.

Shunday qilib, bank faoliyatini soliqqa tortishni takomillashtirishda:

- ✓ Soliqqa tortishning murakkab bo'lmagan, tushunarli, aniq, adolatli tizimini ta'minlash;
- ✓ Banklarning hisob siyosati va nazoratini doimiy ravishda rivojlantirish;
- ✓ Qonunchilikka xavf keltiradigan va riskli bank operatsiyalari ustidan doimiy monitoring olib borish. Bunday yo'nalishlar riskli yechimlardan qochishga yordam beradi va soliq munozaralarini tartibga solishga yordam beradi.⁸⁰

O'zbekistonda soliq organlarining axborotlashtirish darajasini oshirish kerak, soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishning elektron ko'rinishini takomillashtirish kerak. Bu borada 2015 yildan boshlab tijorat banklari soliq xizmati organlariga moliyaviy va boshqa hisobotlarni elektron tarzda taqdim etish tizimi joriy qilindi. Shuningdek, soliq hisoboti shakllariga o'zgartirishlar kiritildi.

⁸⁰ Shuvalova E.B., Federov P.Y., Efimova T.A. *Ekonomika-pravoviye voprosi nalogoblojeniya bankov. Monografiya. Izd-vo: Moskovskiy gosudarstvenniy universitet ekonomiki, statistiki i informatiki (MESI). M. 2010 y.*

III bob bo'yicha xulosa

Tijorat banklarini soliqqa tortishda ham muammolar mavjud, chunki tijorat banklari yirik soliq to'lovchilargina bo'lib qolmasdan, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektdir.

Soliqqa tortishning ob'yekti bo'lgan tijorat banklarining daromadini shakllantirish masalasiga katta ahamiyat berishi va uning bank uchun ham, davlat budjeti uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi bu masalani takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri imtiyozlar tizimi bilan bog'liqdir. Bu masalani bir necha yo'nalishda hal etish mumkin:

- ✓ Tijorat banklari daromadlarining ayrim turlarini soliq solinadigan bazaga kiritmaslik;
- ✓ Soliqqa tortiladigan ob'yektni haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarni hisobga olgan holda ma'lum summaga kamaytirish;
- ✓ Tijorat banklari foydasidan olinadigan soliq stavkalarini ma'lum ob'yektiv sabablarni inobatga olgan holda tabaqalashtirish.

Bugungi kunda respublikamiz banklarini soliqqa tortish masalalarini optimallashtirish uchun soliq tizimining milliy qonunchiligini, shuningdek banklardagi soliqlarning maxsus rolini takomillashtirish zarur.

Shunday qilib, bank faoliyatini soliqqa tortishni takomillashtirishda:

- ✓ Soliqqa tortishning murakkab bo'lmagan, tushunarli, aniq, adolatli tizimini ta'minlash;
- ✓ Banklarning hisob siyosati va nazoratini doimiy ravishda rivojlantirish;
- ✓ Qonunchilikka xavf keltiradigan va riskli bank operatsiyalari ustidan doimiy monitoring olib borish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, banklarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy kamchiliklarning kamayishiga va mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishga erishish mumkin.

XULOSA

Dissertatsiyada xorijiy va respublikamizdagi ilmiy, nazariy manbalarni o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida tijorat banklarini soliqqa tortish va uni hisobini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi xulosa va takliflar qilindi:

Davlatning soliq tizimida tijorat banklari alohida o'rin tutadi. Tijorat banklarini soliqqa tortish, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlardan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tijorat banklarining soliq tizimidagi o'ziga xoslik ikkita bir-biriga mos bo'lmagan holatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, tijorat banklari soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida soliqlar undirilishi va uni nazorat qilish yuzasidan vositachi hisoblanadi. Ikkinchidan, tijorat banklari bir qator soliqlarni to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarining daromadi qismi bo'yicha tushumlar ijrosini bajarishda tijorat banklarining hissasi sezilarli o'rin kasb etadi. Ma'lumki, har bir tijorat banki o'z faoliyatini amalga oshirish davomida yuqori foyda olishga harakat qiladi. Banklar oladigan foydasining yuqori bo'lishi esa budjetga to'lanadigan soliqlar miqdorining ham mos ravishda yuqori bo'lishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, budjet daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

Tijorat banklari, xususan, AT "Aloqa bank" tomonidan to'langan umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar, shuningdek majburiy to'lovlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yildan yilga soliq miqdorlari o'sish salmog'iga ega. Soliq miqdorining yuqori bo'lishiga imtiyozlar hajmining kamligi yoki umuman qo'llanilmaganligi, xarajatlar tarkibining hajmi salbiy ta'sir ko'rsatgan, bu bankning daromadi va foydasiga ta'sir qiladi.

Tijorat banklarini soliqqa tortishda ham muammolar mavjud, chunki tijorat banklari yirik soliq to'lovchilargina bo'lib qolmasdan, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektdir. Bu muammolarga quyidagilar kiradi:

➤ tijorat banklarini soliqqa tortish bo'yicha me'yoriy huquqiy bazaning yetarli emasligi;

- soliqqa tortish tizimida MHXS (moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari) ning amaliyotga to'liq joriy etilmaganligi va shu bilan bog'liq muammolari;
- soliqning buxgalteriya hisobini yuritishda xalqaro standartlardan foydalanmaslik;
- foyda solig'i stavkasining yuqoriligi;
- banklarga berilayotgan soliq imtiyozlarining kamligi yoki umuman qo'llanilmayotganligi;
- tijorat banklarining daromad yoki foydasiga beriladigan imtiyozlarning alohida hisobvaraqlarda yuritilmasligi;
- banklarda moliyaviy xizmatlardan tashqari ko'rsatilga boshqa xizmatlariga qo'shilgan qiymat solig'i o'rnatilganda xizmatlar bilan bog'liq har xil risklar hisobga olinmaydi, bu esa ko'pgina bahsli holatlarga sabab bo'ladi;
- foyda solig'ini hisoblash metodikasining murakkabligi;
- soliq solinadigan bazaga qayta qo'shiladigan xarajatlar yoki chegirilmaydigan xarajatlar miqdorining ko'pligi;
- tijorat banklarini soliqqa tortishda hisob-kitob ilovalari miqdorining ko'pligi va murakkabligi;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini o'tkazish topshiriqnomasi, ularni undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasi bajarilmaganda qo'llaniladigan penya miqdorining yuqoriligi;
- bank sistemasiga davlatning yuqori darajada aralashuvi.

Tijorat banklarini soliqqa tortishda soliq nazoratini takomillashtirishda, avvalo tijorat banklaridagi hisob-kitoblar tizimiga alohida e'tibor berilishi kerak va ularning mutanosibligini kuzatuvdan chetda qoldirmasligi muhim ahamiyatga ega. Chunki hisob-kitoblarning aniqligi katta ahamiyatga egaki, bunda tijorat banklari tomonidan hamda soliq nazorati xodimlari tomonidan tekshiruvlar osonlashadi. Tijorat banklarining foydasini soliqqa tortishda soliq nazoratini o'rnatish va takomillashtirishda, avvalo, tijorat banklarining tegishli moliyaviy

hisobotlari va ma'lumotnomalarini tahlil qilish, ularga yetarli baho berish va o'rnatilgan tartibni ta'minlash, soliq nazoratini kuchaytirish zarur.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishni takomillashtirishni bir necha yo'nalishda hal etish mumkin:

- Tijorat banklari daromadlarining ayrim turlarini soliq solinadigan bazaga kiritmaslik;
- Soliqqa tortiladigan ob'yektni haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarni hisobga olgan holda ma'lum summaga kamaytirish;
- Tijorat banklari foydasidan olinadigan soliq stavkalarini ma'lum ob'yektiv sabablarni inobatga olgan holda tabaqalashtirish;

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Mana shu bosqichda quyidagilar eng muhim va birinchi navbatdagi choralar sifatida olg'a suriladi:

- soliq siyosatini yanada takomillashtirilishi lozim. Bunday siyosatning vazifasi bir tomondan, budget daromadlarining barqaror tarzda safarbar etilishini ta'minlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, respublika uchun zarur mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda korxonalarni rag'batlantirishdir;
- kredit bank tizimini, pul muomalasini mustahkamlash, valuta munosabatlarini tartibga solish, naqd to'lov mablag'lari oborotini tartibga solish ham pul muomalasini sog'lomlashtirishga ko'maklashadi.

Bank faoliyatini soliqqa tortishni takomillashtirishda:

- Soliqqa tortishning murakkab bo'lmagan, tushunarli, aniq, adolatli tizimini ta'minlash;
- Banklarning hisob siyosati va nazoratini doimiy ravishda rivojlantirish;
- Qonunchilikka xavf keltiradigan va riskli bank operatsiyalari ustidan doimiy monitoring olib borish kk.

Yuqoridagi muammo va fikrlardan kelib chiqqan holda, tijorat banklarini soliq to'lash tizimi va hisobini takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- ✓ Soliq Kodeksida tijorat banklariga tegishli mavjud moddalarni konkretlashtirish;
- ✓ Soliqning buxgalteriya hisobini yuritishda xalqaro standartlardan foydalanish;
- ✓ Banklarda qo'llanilib kelgan ayrim imtiyozlar (xususan, jalb qilingan omonatlar bo'yicha) muddatini uzaytirish yoki boshqa imtiyoz turlarini amaliyotga joriy etish;
- ✓ Tijorat banklarining daromad yoki foydasiga beriladigan imtiyozlarning alohida hisobvaraqlarda yuritilishini tashkil etish;
- ✓ Foyda solig'ini hisoblashning tushunarli va oson metodikasini yaratish;
- ✓ Tijorat banklarini soliqqa tortishda hisob-kitob ilovalari miqdorini qisqartirish yoki soddalashtirib umumlashtirish;
- ✓ Soliq solinadigan bazaga qayta qo'shiladigan xarajatlar yoki chegirilmaydigan xarajatlar tarkibini qisqartirish.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasidagi taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish banklar uchun to'lanadigan soliqni aniqlash va hisoblash tizimini soddalashtiradi. Shuningdek nafaqat banklar uchun samarali bo'ladi, balki mamlakatdagi real sohani rivojlantirish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish imkonini ham beradi. Banklar oladigan daromad yoki foydasining yuqori bo'lishi ularning kreditlash-investitsion faoliyatining oshishiga imkon beradi. Natijada pulga ehtiyoj sezayotgan ishbilarmonlarning talabi yuqori darajada qondirishga keng imkoniyat yaratiladi. Bu bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga, umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2014 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. 1 yanvar 2008 yil (2015 yilda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan).
3. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 25 aprel 1996 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 30 avgust 1996 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 29 avgust 1997 yil (4 sentabr 2014 yilda o'zgartirish kiritilgan).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 10-oktyabrdagi "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3154 – sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18-noyabrdagi "Iqtisodiyotnig real sektoridagi korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi "Tijorat banklariga iqtisodiy nochor korxonalarni realizatsiya qilish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4010–sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 9 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga 2015 yil 1 yanvardan boshlab o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi PF-4677-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28-iyuldagi "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1166-sonli Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438–sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11-martdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1501-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270–sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ – 2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari

15. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: "O'zbekiston", 2014 y., 24-bet.
16. Karimov I. A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2015 y., 5-bet.

IV. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

17. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 2aprelda 1463-son bilan ro'yxatga olingan "Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni budjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida"gi Nizom.
18. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 19 oktabrda 2021 – son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli

tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom.

19. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2012 yil 15 martda 2342 – son bilan ro'yxatdan o'tgan “Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning bank hisobvarag'laridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida”gi Nizom.
20. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 29 mayda 2460 – son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Markaziy bank boshqaruvi, O'zbekiston Davlat Soliq Qo'mitasining “Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlarga taaluqli operatsiyalar ro'yxatini tasdiqlash haqida”gi Qarori.

V. Kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami:

21. Perov A.V. Nalogi i nalogooblojeniye: Uchebnoe posobiye. – 5-y izd., pererab. i dop. – M.: Yurayt – Izdat, 2005 y., -75-b.
22. Zavalishina. I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot : -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2005. -544 b.
23. Malikov T.S. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T: Akademiya, 2006 y., - 203 b.
24. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T: Iqtisod va moliya. 2007 y., -78 b.
25. Tuxliev B., Yusupov O.A., Agzamov A.T., Tuxsanov H.N. Soliqlar va soliqqa tortish.–T.: TDIU, 2007., -320 b.
26. Mayburov I.A. i dr. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya. 2-e izd. Pererab. i dop. – M.: 2011 y., -48 b.
27. X. Oybekova. Moliyaviy inistitutlarni soliqqa tortish . O'quv qo'llanma - T.TDIU, 2010 y.
28. Shuvalova E.B., Federov P.Y., Efimova T.A. Ekonomika-pravoviye voprosi nalogooblojeniya bankov. Monografiya. Izd-vo: Moskovskiy gosudarstvenniy universitet ekonomiki, statistiki i informatiki (MESI). M. 2010 y.

29. Omonov A., Qoraliyev T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent, “Iqtisod-Moliya”, 2014 y.

VI. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar

30. Abdullayev. A. Soliq imtiyozlarining banklar resurs bazasini oshirishdagi ahamiyati // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2012. - № 9. – 48 b.
31. Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2013. - № 8. – 23 b.
32. Yermoshina T.V., Uvarova I.A. Stimulirovaniye investitsionnoy deyatelnosti kommercheskix bankov cherez sistemu nalogooblojeniya // Kontentus. 2013 y. - № 4. -19-24 b.
33. Shmakova N. Qo’shilgan qiymat solig’idan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar// Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2013. - № 7. – 16-17 b.
34. Toshmatov Sh. Tijorat banklarida foyda solig’i stavkalarini tabaqalashtirish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2014. - № 12. – 3 b.
35. Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2014. - № 12. – 6 b.
36. AT “Aloqa bank” ning buxgalteriya hisobi siyosati. – Toshkent, 2015 yil.
37. AT “Aloqa bank ”ning 2010, 2011, 2012, 2013 yillar uchun yillik moliyaviy hisobotlari.

VII. Internet saytlari:

<http://www.cbu.uz> (O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki).

<http://www.bpk.uz> (Bozor, pul va kredit jurnali).

<http://www.soliq.uz> (O’zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo’mitasi).

<http://www.lex.uz> (O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).

<http://www.google.uz>.